

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O'ZBEK TILI VA ADABIYOT
UNIVERSITETI
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O'QITISH FAKULTETI**

“Himoyaga ruxsat etilsin ”

Fakultet dekani

f.f.d. B.Abdushukurov

“...” -----2018 y

**5111200 -“O'zbek tili va adabiyoti” bakalavr ta'lif yo`nalishi IV kurs
405-guruh talabasi Yaqubova Sevinchoy Islamjanovnaning «Mustaqillik
davri o'zbek she'riyatini o'r ganishning ilmiy-metodik asoslari» mavzusida
yozilgan**

B I T I R U V M A L A K A V I Y I S H I

Ilmiy rahbar: _____ R.Niyozmetova
“O'zbek adabiyotini o'qitish
metodikasi” kafedrasi professori

Taqrizchilar:

_____ U.Hamdam
“Tarjima nazariyasi va amaliyoti”
kafedrasi katta o'qituvchisi, f. f. d.

_____ Q.Qahramonov
O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori

“Himoyaga tavsiya etilsin”
“O'zbek adabiyotini o'qitish
metodikasi” kafedrasi mudiri
f.f.d., _____ Z.Mirzayeva
2018yil “15”- may

TOSHKENT-2018

MUNDARIJA

KIRISH. BMIning umumiy tavsifi.....3

I BOB. YOSHLAR SHE‘RIYATINING MAVZU KO‘LAMI VA LIRIK QAHRAMONI RUHIY OLAMI

- 1.1. Ijtimoiy-ma‘rifiy, ma‘naviy-axloqiy muammolar poetik talqini.....7
1.2. Istiqlol davri yosh ijodkorlar se‘riyatida lirik qahramon.....18

II BOB.T ‘LIM TIZIMIDA MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK SHE‘RIYATINING O‘RGANILISHI

- 2.1 Istiqlol davri she‘riyatini o‘rganishning metodik asoslari.....32
2.2 Zamonaviy o‘zbek lirikasini o‘rganish usullari.....56

III BOB. ISHNING AMALIYOTGA TATBIQI

- 3.1. Ta‘lim bosqichlari dastur va darsliklari tahlili.....67
3.2. Ochiq dars ishlanmasi..... 72

XULOSA.....82

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....84

KIRISH

BMIning umumiyl tavsifi

Mavzuning dolzarblii. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgach, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-madaniy taraqqiyotning istiqbolli yo‘liga kirdi. Ayniqsa, ta’lim sohasidagi tub islohotlar davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Chunki yosh avlodning imkoniyatlari va qobiliyatlarining takomillaShuvida ta’lim bo‘g‘inlari alohida ahamiyatga ega. Zotan, ma’naviyatli yoshlar jamiyat boyligidir.

Respublikamiz prezidenti Sh. Mirziyoev 2016 yil 14 dekabr kuni bo‘lib o‘tgan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqida: “*Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol to‘ishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz*”¹. degan edilar Darhaqiqat, bugungi kunda mamlakatimiz aholisining 32 foizi, ya’ni 10 millionini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. Mamlakatimizda ta’lim tarbiya bo‘yicha qabul qilingan umummilliyl dasturning hayotga tadbiq etilishi samarasi o‘laroq, yoshlarimiz Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo‘lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchiga aylanib bormoqda. Shubhasiz. yosh avlodning zamon talablariga munosib, mustaqil fikr-qarashiga ega, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyat sohibi va dunyoning har bir burjidagi tengdoshi bilan erkin muloqotga kirisha oladigan shaxs bo‘lib kamol topishida adabiyot va san’atning roli beqiyosdir.

Adabiy asarlarni o‘rganish orqali o‘quvchiga nafosat tarbiyasi singdiriladi. Badiiy tarbiya adabiyot fanini o‘qitish orqali fanga oid muayyan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘quvchilarda shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Ta’lim tizimida, xususan, akademik litsey dastur va darsliklarida Istiqlol davri she’riyati namunalari ham o‘rin egallagan. Ularni o‘rganish orqali

¹ Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамиз. Халқ сўзи. // 2016 йил 16 декабрь.

o‘quvchining olam ranglari, hayotning mohiyati, go‘zallik tushunchalarini anglab yetishiga ko‘maklashiladi. Lirik asarlar tahlili orqali o‘quvchining mustaqil fikrlash salohiyati o‘sadi, og‘zaki va yozma nutqi takomillashadi.

Bilamizki, Istiqlol davrida yaratilgan lirik asarlardan asarlari el ichida ma’lum va mashxur bo‘lgan, ustoz shoirlarning ijod namunalari akademik litsey dastur va darsliklarining uch bosqichida o‘rganiladi. Biz ushbu tadqiqotimizda ustoz soirlarning Istiqlol yillarda yaratilgan asarlarini o‘rganish bilan bir qatorda yosh, iste’dodli, o‘zimizga tengdosh va tuyg‘udosh shoirlar ijodini kuzatishga qaror qildik. Tadqiqotimizning asosiy maqsadi ham tengdosh-tuyg‘udosh yosh ijodkorlar ijod namunalarini imkon qadar tahlil va talqin qilishdan iborat. Bugungi kunda yosh ijodkorlar ijodining deyarli o‘rganilmayotgani tanqidchiligidagi asosiy kamchiliklardan hisoblanadi. Bunga sabab katta yoshli tanqidchilarimiz yoshlar ruhiyatini yaxshi tushunmasligida deb o‘ylayman. Shu sababdan, men yosh ijodkorlarga tengdosh-tuyg‘udosh tadqiqotchi sifatida ular ijodini chuqr o‘rganishni o‘z oldimga maqsad qilib qo‘ydim. Zotan, kelajak mana shu yoshlar qo‘lidadir. Ularni hozirdan qo‘llab-quvvatlab, ijod namunalarini tahlil va talqin qilib borilsa ulardan kelajakda el ardog‘idagi ijodkorlar yetishib chiqishi shubhasiz. Kichkina bir tadqiqot doirasida Istiqlolga erishgan kunimizdan to bugungi kungacha yaratilgan lirik asarlarni o‘rganish imkoniga ega emasmiz. Shuning uchun biz ushbu BMIda hali o‘rganilmagan, iqtidorli tengdoshlarimizdan ayrimlarining ijod namunalarini hamda 3 bosqich darsligidagi ustoz shoirlarning Istiqlol yillarda yaratilgan lirik asarlarini o‘rganish bilangina cheklanamiz.

Muammoning ilk bora tadqiqot obyekti sifatida tanlanishi mavzuning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Mavzuning o‘rganilish tarixi.

Q.Yo‘ldosh va M.Yo‘ldoshlarning “Badiiy tahlil asoslari”² kitobida badiiy tahlilning ilmiy asoslari yoritilgan. Unda asarning badiyiligini ta’minlagan omillar, uning estetik jozibasini tashkil etgan unsurlar, shoirming uslubi, asar va ijodkor dunyoqarashi, asar va jamiyat munosabati, unda inson ruhiyatining

² Қозоқбай Йўлдош, Мухайё Йўлдош. Бадиий таҳлил асослари. – Т.: Камалак, 2016

ifodalanish yo'sini kabi bir ko'p jihatlar nazariy yo'sinda tekshirilgan. Asarga asosli ilmiy baho berish yo'llarini o'rgatish maqsadi ko'zlangan.

O'zbek adabiyotshunosligida Istiqlol davri o'zbek she'riyatini o'rganish bo'yicha bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilib kelinmoqda. B.Nazarov, Q.Yo'ldoshev, D.Quronov, B.Karim, N.Jabborov, I.Yoqubov, S.Meli, U.Jo'raqulov singari adabiyotshunoslarning so'nggi yillarda yaratgan tadqiqotlarida Istiqlol davri she'riyatining o'ziga xos jihatlari, rivojlanish tamoyillari, uslubiy xususiyatlari tahlil etiladi³.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. BMIning asosiy maqsadi Mustaqillik davri o'zbek she'riyatini o'rganishning ilmiy-metodik asoslarini tadqiq etishdan iborat. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi:

- Mustaqillik davri o'zbek she'riyatida shakliy-uslubiy izlanishlarni aniqlash;
- Ijtimoiy-axloqiy muammolarga ruhiy munosabatni tahlil etish;
- Lirik qahramon ruhiyati tasviri tadqiq etish;
- Ta'lim tizimida mustaqillik davri o'zbek she'riyatining o'rganilishi;
- Istiqlol davri she'riyatini o'rganishning metodik asoslarini aniqlash ;
- Bugungi she'riyatni o'rganish usullarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obekti. BMI ni yozishda akademik litsey darsliklaridan o'rinn olgan lirik turga mansub asarlar va Istiqlol davri yosh shoirlari she'riy to'plamlari obekt vazifasini o'tadi.

BMIning metodologik asosini Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoevning ma'naviyat, adabiyot va san'atga oid qarashlari tashkil etadi. Shuningdek, o'zbek adabiyotshunos va metodist olimlaridan I.Sultonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, B.Nazarov, B.To'xliev, M.Mirqosimova, Q.Yo'ldoshev, D.Quronov, R.Niyozmetova, I.Yoqubov, U.Jo'raqulov va boshqalarning ilmiy-nazariy, metodik qarashlari ishimizni amalga oshirishda metodologik asos vazifasini o'tadi.

³ Карап: Шарафиддинов О. Ижодни англаш баҳти. –Тошкент: Шарқ, 2004; Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000; Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Т.: Ўзбекистон, 2008; Назаров Б. Гафур Ғулом олами. –Тошкент: Фан, 2004; Расулов А. Таҳлил, талқин, баҳо. –Т.: Фан, 2006; Қурунов Д. Чўлпон насли поэтикаси. –Тошкент: Шарқ НМК, 2004; Ёкубов И. Бадий-эстетик сўз сехри. –Т.: Фан ва технология, 2011; Жўракулов У. Худудсиз жилва. –Т.: Янги аср авлоди, 2006

Tadqiqotning metodi. Mavzuni yoritish jarayonida tadqiqotda qiyosiy-tipologik va tahliliy usullardan foydalanildi.

BMIning ilmiy yangiligi. Ushbu tadqiqotda lirik asarlarni tahlil qilishning ilmiy-metodik asoslari o‘rganildi. Unda she’riy *asar tahlilining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etildi*. Akademik litseyda lirik asarlarni o‘rganishning o‘ziga xos jihatlari kuzatildi.

Istiqlol davri she’riyatini o‘rganishda interfaol metodlardan foydalanish haqida fikr-mulohazalar ilgari surildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Ushbu izlanishlarimiz nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga egadir. Tadqiqot mobaynida olib borilgan kuzatishlar, BMIda bayon etilgan ilmiy-nazariy xulosalardan oliv o‘quv yurtlarining talabalari, o‘rta maxsus ta’lim tizimi uchun maxsus kurslar va seminarlarda foydalanish mumkin. Shuningdek, tadqiqot Istiqlol davri she’riyatini o‘rganishda, badiiy ijodga bag‘ishlangan risola, darslik hamda qo‘llanmalar tuzishda, adabiy portret yaratish va to‘ldirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning tarkibiy tuzilishi. Ishimiz tarkibiy tuzilishiga ko‘ra kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I bob. YOSHLAR SHE'RIYATINING MAVZU KO'LAMI VA LIRIK QAHRAMONI RUHIY OLAMI

1.3. Ijtimoiy-ma'rifiy, ma'naviy-axloqiy muammolar poetik talqini

Mamlakatimiz har burjida ilk qadamlaridanoq o‘z istiqboliga umid tug‘dirayotgan ijodkor yoshlar talaygina. Quvonarli jihat shundaki, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi joriy adabiy jarayonning eng qaynoq nuqtalaridan biri bo‘lishga intilib kelmoqda. Uyushma huzurida muhtaram yurtboshimiz tashabbuslari bilan tuzilgan “*Ijod*” fondi navqiron qalam ahliga e’tibor va g‘amxo‘rlik nazari bilan qarab kelmoqda. Bu Fond qalam ahlini qo‘llab-quvvatlash bilan bir qatorda, yurtimizda ijod sohasi va milliy madaniyatimizning rivoj topishiga ham xizmat qilmoqda.

Iste’dodli yosh qalamkash tengdoshlarim o‘z yurtdoshlari ongi va dunyoqarashi, madaniy saviyasini yuksaltirish, xalq qalbining kuychisi bo‘lishdek og‘ir hamda murakkab, ayni paytda ulug‘ vazifani o‘z zimmalariga olishgan.

Xo‘sish, ular shu yo‘lda el-yurt oldidagi farzandlik burchi, grajdanilik pozitsiyasi va mas’uliyatini qanchalik teran sezishmoqda va anglashmoqda? Ijodkor zahmatlari samarasi bo‘lgan poetik so‘z jamiyat taraqqiyoti uchun g‘oyatda zarurligi, mas’uliyatli sohaga qadam qo‘ygani haqidagi haqiqatni ilk qadamlaridanoq chuqur his qilib, teran anglashmoqdam?

Ha, bizning tengdosh va tuyg‘udoshlarimiz qalbida sabr-qanoat va shukronalik tuyg‘ulari hokim. Ular shu tuyg‘ular prizmasidan insoniyatning nafs ilinjidagi turfa evrilishlarini poetik baholashadi. Inson mavjudiyati mohiyatini anglash va anglatishga urinishadi. Tafakkur va idrokida kashf etgan ma’nolarini o‘z hayotlari va jamiyatga tadbiq etishni tilashadi. Albatta, mazkur mashqlar oshkora tashviqiylik, deklarativlik va didaktikadan mutlaqo xoli emas. Aziz tendoshlarimiz tafakkur va idroki kashf etgan xalqimiz mentalitetiga xos soddalik, mehr-saxovat va bag‘rikenglik, sabr-qanoat va shukronalik singari azaliy qadriyatlar bilan bog‘liq solim ma’nolar o‘z salmoqdarligi bilan ham diqqatga

loyiqdir. Quvonarli jihat Shundaki, poetik nutqning emotsiyal-hissiy to‘yintirilishi, vazni, ritmi, musiqiy jarangi, o‘ziga xos fonetik va sintaktik tashkilanishi, undagi kayfiyat va kechinmaning o‘quvchiga “yuqtirilishi” – shakl va mazmun uyg‘unligi singari muammolar yuzasidan shu paytgacha o‘tkazilgan suhbatlarning ilk kurtaklaridan ustozlarimiz ko‘ngillari taskin topmoqda. Zotan, ayrim tengdoshlarimiz lirik sub‘ekt his-tuyg‘ulari akslangan voqelikni bayon qilishdan, uni san’atga daxldor hodisaga aylantirish sari sifatiy siljish bosqichiga o‘tishmoqda.

Yosh shoirlar inson va inson, inson va jamiyat, inson va borliq muammolari haqida o‘ylashar ekan, tabiiyki umr mazmuni, lahzaning qadri ko‘ngil ardog‘i haqida teran fikrlarga tolishadi. Tengdoshlarimizning “*Birinchi kitobim*” rukni ostida nashr etilgan ayrim to‘plamlardan o‘rin olgan she’rlari yosh qalamkashlar yaqin kelajakda yuksak parvozlarni ko‘zlayotganidan mujda beradi. Ana shunday umidli qalam sohiblaridan biri **Shodi Otamuroddir**.

Sh. Otamurodovning “*Sog‘inch ranglari*”⁴ nomli ilk kitobiga jamlangan she’rlar poetik jozibasi va ijodkorning odam, ijtimoiy hayot va keng borliq haqidagi fikr-mushohadalari ancha jiddiy ekani bilan e’tiborni tortadi. Zotan, shoir qo‘llagan ohorli tashbehtar, betakror obrazli ifodalar chindan ham o‘ziga xosligi bilan diqqatga molikdir. U so‘z ga sig‘inadi, unga xiyonat qilmaslikka ahd qiladi. Faqat shu manzildagina o‘zini bexavotir sezadi:

*She’riyat! Sen o‘zing go‘zal diyonat,
Mayli senda yaShay kam-u ko ‘st bilan.
She’riyat! Men senga qilsam xiyonat,
Yuragim portlatib yubor so‘z bilan.*

Shodi Otamurod – o‘z-o‘ziga talabchan va she’riyatning ulug‘ qudratiga ishongan shoir. U yozganlari hozircha to‘la mukammal emasligini-da ilg‘aydi, ammo so‘zga nisbatan qilingan zig‘ircha xiyonatni ko‘ngilga, yurakka nisbatan diyonatsizlik – jazoga mahkum a’mol deb biladi. Qalamkashning o‘z burchiga

⁴ Шоди Отамурод. Согинч ранглари. Шеърлар. –Тошкент: ADIB, 2014.

bo‘lgan sadoqati, mas’ullik tuyg‘ulari izhoridagi ifoda keskinligi va keskirligi uning qalbida yetilgan ahdu-jahdning ishonchlilik darajasini ham kuchaytiradi.

Bir siqim tuproqdan Vatan yaralgay,

Bir toza mehrdan yaralgay Vatan.

Shuning-chun azaldan issiq diyorday

Mehribon ona deb atalgay Vatan.

Butun va qism uzviy aloqasi asosidagi ma’no ko‘chishining miqdoriy ko‘rinishi bo‘lgan sinekdoxa qo‘llash odatda, nisbat berish orqali yuzaga chiqadi. Shoir bir siqim tuproq va bir toza mehr kabi moddiy hamda ma’naviy tushunchalar zamirida Vatan timsolini ko‘radi. Bu bizga har qancha an’anaviy tuyulmasin, tuproq va mehr (*qism*) orqali butun (*Vatan*)ni ifoda etish va uning bag‘rida umrguzaronlik qilishni mehribon ona quchog‘iga mengzash shoir kechinmalari milliy qadriyatlardan unib chiqishini ko‘rsatishi, fikr ixcham hamda lo‘nda ifodalanishi jihatidan xarakterlidir.

Ustoz Ozod Sharafiddinov haqli ravishda ta’kidlaganidek, “*Lirikadagi poetik obraz fikr va tuyg‘uning uzviy birikishidan tug‘iladi*”⁵. Demak, she’rda bunday uyg‘unlik fazilati bo‘lmas ekan, uni yuksak badiiyat namunasi hisoblash ham mumkin emas.

Jo‘rabek Jahonning “*Tuyg‘ular shaharchasi*”⁶ nomli she’rlar to‘plami chop etilgan. Kitobdan o‘rin olgan she’rlarda tuyg‘u va kechinma o‘ziga xos tarzda ifodalanadi.

Shoir “*Umr manzaralari*” she’rida nogahon qarsillab qulagan daraxtga bo‘lgan munosabatini turli xil kasb, har xil yoshdagi, hayot yo‘li turlichay kechgan, qalbi va dunyoqarashi ham bir-biriga mutlaqo o‘xshamaydigan kishilar: (*oshpaz, olim, chol, urush vahshatlarini ko‘rgan faxriy, farzandidan bevaqt judo bo‘lgan ona*) nigohlari bilan kuzatadi. Qarangki, “qulagan daraxt” da oshpaz yaxshigina o‘tinni ko‘radi. Urush faxriysi suyanchiqsiz odam umrining fojiali yakuni, ona esa

⁵ Шарафиддинов О. Талант – халқ мулки. -Т.: Ёш гвардия, 1979. –Б.147.

⁶ Жўрабек Жаҳон. Туйгулар шаҳарчаси. Шеърлар. – Т.: ADIB, 2014.

so‘ngsiz iztirob sifatida hissiy qabul qilishadi. Bu fojeiy manzara yoshini yashab, oshini oshab bo‘lgan cholning nazdida umr o‘tkinchi ekani ramziga aylanadi.

Demak, kitobga kirgan dastlabki she’r mutolasidanoq yosh shoir falsafiy fikrlash, hodisani turli rakurslardan kuzatishga moyil ekanini payqash mumkin. Zotan, biz qismatning nogahoniy, kutilmagan hamda insonga bog‘liq emasligini qanchalik teranroq anglaganimiz sari uning falsafasi va umr atalmish ne’mat qadri Shunchalik chuqurlashib boraveradi:

*Ey, osmonga suyangan daraxt,
Yulduzlarni qitiqlagan gul,
Sen ne deya qilgan eding ahd,
Tutindingmi quyoshga o‘g‘il?*

Jo‘rabek Jahon tabiatning har bir uzvidan ma’no va mazmun axtaradi. Ular bilan muloqotga kirisharkan, pirovardida muazzam borliq mohiyatini anglashga talpinadi. Shoir fikr-tuyg‘ulari orzu (*ibtido*) va armon (*intiho*) oralig‘ida harakatlanadi. U daraxt samoga talpinishi va bir olam bokira romantik orzulari armonga aylanib, keksalik manziliga yetib kelish yo‘lini xayolan tasavvur qiladi. Chindan ham, timsoliy “*daraxt*” ne-ne kunu tunlarni bezab, ko‘k toqiga tirgak, oyga qo‘nimgoh bo‘lishida qanday asror nihon. Odam bolasi buni jo‘n nigoh bilan emas, botin ko‘zi bilangina ilg‘ashi, qalban tuymog‘i mumkin emasmi? Shuning uchun ham shoir:

*Seni anglash uchun kamida
Yurak kerak, osmonday yurak.*

deb yozadi. Darhaqiqat, hayot falsafasini timsolli anglash uchun teran falsafiy nigoh, obrazli ifodalash uchun esa sohir yurak lozim.

Yosh shoira **Madina Norchaeva** so‘z jilosi va qadrini yaxshi tuShunadi, hayotiy tuyg‘ularini nafis ifodalarga ko‘chira oladi. Havaskor shoira Madina qoralamalari mahalliy gazetalarda bosilgan. “*Muharrir*” nashriyotida “*Dil ifori*” nomli she’rlar kitobi chop etilgan⁷. Umidli qalamkash Vatan va uning madhini

⁷ Норчаева М. Дил ифори. Шеърлар. – Т.: Мухаррир, 2013.

kuylaydi. Olis bobolar shoni va zakosidan nur olib kelajak sari intilishu yurtga turgak bo‘lishni oliv tilak deb biladi. Uning aksar ta’riflari yuksak pafosga yo‘g‘rilgan. Ayni paytda, shoira vatanni jo‘n bir yantog‘i bo‘lib sevadi, uning qoshida teran burchdorlik tuyadi, ko‘zmunchoqdek ardoqlaydi. Madinaning ayrim bitiklarida azaliy ishq va hijron motivlari ifori anqib turadi. “*Siz mening ko‘nglimni yaralab so‘ngra, / She’rlarimda qolgan buyuk armonim*” singari intizor ko‘ngilning samimiyy izhorlari ortida esa, umidbaxsh hislarga limmo-lim ulkan qalb egasi o‘z bokira tuyg‘ulari-la mo‘ralab turadi. Ko‘ngil tilagiga ergashib daydi shamollar bilan sirlashish, qaldirg‘ochga roz aytish asnosidagi titroq qalb sohibasi “*qalam*” ni taqdir va qismat, deb bilishiga shubha yo‘q. Zotan, u olam hodisalarini ojiz bir kapalak misol bokira tuyg‘ular bilan kuzatarkan, necha ming yillar muazzam Sharq she’riyati ardog‘ida bo‘lgan “*bulbul*” obrazi ham Shoiraga “*yolg‘on*” tuyg‘ular ifodachisi bo‘lib tuyuladi. Zotan, Madinaning lirik qahramoni “*lahza*”lar qimmatini go‘zallikka bo‘lgan munosabat samimiyylik darajasiga ko‘ra belgilaydi.

U “*tasvir*” va “*holat*”larni musavvirona aks ettiradi. Xazonrezgi odatiy va doimiy hodisa, biroq uning “*kiprikdag yoshday*” to‘kilishi, yurakdag kechinmalar rangidan ham darak beradi. Shoiraning “*Xazonda mador bor, menda jon yo‘qdir*”, tarzidagi e’tiroflari tuyg‘uning darjasini, dardlariga malham istayotgan ko‘ngil istagidan ogoh etadi. Madina inson ko‘nglidan buyukroq bir xilqat, uning intilishlaridan ulug‘roq qadriyat yo‘qligini yaxshi his qiladi. Uning lirik qahramoni dunyo sinoatlari: inson va insoniyatga bo‘lgan adoqsiz mehr quchog‘ida chiniqib, pokiza tonglar sog‘inchida ulg‘ayib boradi. M. Norchaeva shunchaki yozmaydi, sabrlari armonga do‘ngan lahzalarda misralar uning “*kiprigidan tomadi*”.

Siz baxtimsiz, siz qanotimsiz,

Alloh bergen bir najotimsiz.

Siz sabrimsiz, siz sabotimsiz,

Kiprigimdan tomgan misralar.

Shoira bitiklaridagi xazinlik odam va olam, moddiylik hamda abadiyat haqidagi mushohadalardan tug‘ilgan kayfiyat-holatlar ifodasi. Aslida, shoira orzu ummoni teranliklaridan o‘zlik izlagan sohir qalbi kelajakka nekbin umid ko‘zi bilan boqib, samoviy yuksakliklar sari talpinadi. “*Bas, yetar, yulduzlar endi to ‘kilman, / O‘zim yoningizga ko‘chib kelaman*” tarzidagi iqrorlar shoira ushbu ertaklar olamidan reallikka ko‘chishi, hayotiylikdan xayoliy kengliklarga talpinishidan ogoh etadi.

Tilagim! Uning yobon kengliklaridan nur emgan pokiza qalbiga zinhor g‘ubor qo‘nmasin. Yuragida mudom she’riyat atalmish iliq ma’volar taftiga bo‘lgan nekbin sog‘inch barq urib turaversin.

Ko‘rinadiki, qalbiga olamni joylashga talpinayotgan bu yosh qalamkashlar poetik nigohidan umidli tug‘yon va nafosat uchqunlari sachraydi.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, taniqli shoira Qutlibeka Rahimboeva **Zilolabonuni**: “*So‘z odami bo‘lish va odamlar ruhiyatiga kirish, ruhiyat manzaralarini chizishdek mashaqqatli, zavqli yo‘lda izlanayotgan yoshlardan biri.*”⁸ sifatida baholaydi. Zotan, yosh qalamkashning:

*Hasratimni tinglagan oq qog‘ozga uzrim bor,
Taqdir yo‘laklarida mangu o‘chmas izim bor.*

tarzida o‘z ko‘nglini ochishida poetik imkoniyat ufqlaridan mujda beruvchi So‘z bilan sirlashish, qog‘oz bilan tillashishga intilish hissi, o‘z xatti-harakatlaridan qoniqish tuyg‘usi oshkor etilgan.

Zilolabonu she’rlarida muhabbat va hijron motivlari bo‘rtib turadi.

Sovuq tomchilar esa, ichki yonishlar taftini bosishga ojiz. Ko‘ngildagi holat tasavvur qilinarkan, dil izhori dildan tilga ko‘chadi:

*Yomg‘ir yog‘ar, yomg‘ir yog‘ar,
Mening esa bag‘rim yonar.*

Ammo tushkun kayfiyat lirk qahramon qalbiga begona. U falakiy sahovat va barakot yomg‘irlaridan ajib bir huzur, hatto halovat tuyadi. Yomg‘irming gard-g‘uborlarni yuvish funktsiyasi endilikda estetik vazifa bajaradi. Ya’ni u hayotning

⁸ Рахимбоева К. Оқ қоғоздаги изхор. Қаранг: Зилолабону. Кўнгилга йўл. -Т.: Тафаккур нашриёти, 2016 - Б. 3.

notanti qiliqlari, ayriliq iztiroblari, qadrlanmagan muhabbat kechinmalaridan hasratga to‘lgan qalbdagi g‘uborlarni tozalaydi. Lirik qahramon o‘z-o‘zini taftish etarkan, notugal holatdan yuksaladi. Uning dilida boshlangan poklanish va tozarish holati beixtiyor tarzda kitobxonga ham “yuqib” katarsis hodisasi sodir bo‘ladi:

*Yomg‘iring quyaver falak ustidan,
Kirlangan qalbimda qolmasin g‘ubor.
Ko‘nglim to‘lmayotir bugun o‘zimdan,
Dillarda boshlansin tozarish, ohor.*

Muhimi, lirik qahramon sog‘inchlari har qancha ortib bormasin, u isyondan itoatga, norizolikdan qismatga ko‘nishga tomon siljib boradi. Aqlning sovuq hukmi emas, balki yurak izmi – ko‘ngil tilagiga ergashib adashmayotganiga ishonadi:

*Qo‘ng‘iroq big‘illar,
Bemor go‘dakdek.
Gohida g‘ingshisa urib otaman.
Eh, yurak – yurak-da,
Sog‘insam netay?
Yornimas, qutini quchib yotaman.*

Turfa kechinmalarning bu qadar tez o‘rin almashinuvini sog‘inch tuyg‘usining ustuvorligi o‘zaro birlashtirib turadi. Chunki tizginsiz vaqt ni jilovlashdan ogoh etayotgan qo‘ng‘iroqning “big‘illashi” dagi najottalab ilinj, “g‘ingshishi” bilan bog‘lik erkalik – bu uzoq kutilgan va hamon intizor kutilayotgan yorning sha’niga gard yuqtirmaslik, uni bolasini ardoqlayotgan onadek e’zozlash, sevish chindan ham ohorli tashbeh. Bunday kechinmalarning har biri shu qadar ko‘ngilga yaqinki, ularni birovga ishonib topshirishdan ko‘ra, ardoqlab quchish mumkin xolos. Zilolabonu mahorati shundaki, u shaxsiy-intim tuyg‘u-kechinmalar, qalb titroqlaridan ijtimoiy muammolar sarhadiga nigoh tashlay oladi. Shoira XXI asrning shiddati va global dunyoda samimiyat, muhabbat va sog‘inch kabi bokira tuyg‘ular nisbatan utilayotganidan jiddiy xavotirga tushadi. Demakki, bizni ogohlikka da’vat etadi:

*Yigirma birinchi asr nigohi,
Kitobdan uzilib, alanglar haryon.
Hayajon zo ‘r erur, qalbim titrog‘i,
Qutidek joyda ham bo ‘lar namoyon.*

Shunga qaramasdan, hamisha qoniqmaslik tuyg‘usi bilan yashaydi, ijod qiladi:

*Axir, bisyor sen muxlis bo ‘lgan,
Marhaboyu Ahad Qayumlar.
Rost, e’tibor berdim sinchiklab,
Mening she’rim sayoz tuyular.*

Iqror zamiridagi inkor mazmuni Zilolabonu iqtidor va salohiyati, san’at olamidagi mavqeい hamda istiqbolidan darak beradi.

E.Vohidov ta’kidlashicha, badiiy ijodkorlik talanti tug‘ma tabiatga ega. Shu bois, adabiy layoqat sohiblarini jo‘n “havskor”lardan ajrata bilish jarayonida xolislik muhim ahamiyatga ega. Zotan, chin iste’dodlarga ma’naviy-ruhiy rahnamolik qilish va ularning iqdidoriga xos qirralar yorqin namoyon bo‘lishini ta’minalash ustoz so‘z san’atkorlari, keng ma’noda ijtimoiy muhit zimmasidagi ulkan mas’uliyatdir.

Adabiyot va ma’naviyatning buguni va ertasi haqida qayg‘uruvchi kishilarda mas’ullik, xolislik tuyg‘ulari e’tiqod daarajasida ulug‘lanadi, unga sadoqat esa, vijdon va iymon maqomida ardoqlanadi. Binobarin, yoshlarga iste’dod yo‘sini, layoqatining darajasiga ko‘ra munosabatda bo‘lib ta’lim va tarbiya berilsa, talanti to‘g‘ri yo‘naltirilsa, ularning kamol topishi – o‘zlarini to‘la namoyon etishlari uchun barcha imkoniyatlar eshigi ochiladi. Obrazli qilib aytganda, mavlono Fuzuliy ta’kidlaganlariday: “Navbahor o‘lgach, tikandin bargi gul izhor o‘lur.”

Shubhasiz, E.Vohidov iste’dodlarni yoshligidan farqlay olish, qofiyabozlarga esa haq so‘zni dadil ayta olish oson yumush emasligini teran anglagan. Uning fikricha: “Bu gapni ayta oladigan odamning uyida cho‘chiydigan siri, boshida omonat shlyapasi bo‘lmasligi kerak.” Obrazli lutfdan anglashiladiki, shoir mazkur ishni tanqidchilar zimmasidagi vazifa deb hisoblagan.

Darhaqiqat, adabiy jarayonga faol aralashish, uni sinchkovlik bilan kuzatish, dolzarb muammolarini o‘rganish, yangi paydo bo‘lgan asarlarni bugungi kun nuqtai nazaridan g‘oyaviy-badiiy tahlil va talqin etish, baholash hamda saralash adabiy tanqidning bosh maqsadi, munaqqidning kasbiy vazifasidir.

Demak, shoir bilan adabiy suhbat qurgan ustoz munaqqid U.Normatov adabiy-estetik mubohasa mavzusini nisbatan keng auditoriyani ko‘zlab tashkil etishi, yosh talantlar tarbiyasi bahonasida o‘sha davrning dolzarb ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy masalalaridan bahs ochishi, tomonlar nafaqat mantiqiy, ba’zan hissiy va obrazli tafakkur unsurlaridan o‘rinli foydalanishlari ham to‘la o‘zini oqlaydi. Shunday ekan, so‘z o‘zani har bir qalamkashning ijtimoiy-iqtisodiy mavqeい, munaqqid unga qaramligi yoxud vijdonan pokligi, xolis so‘zni yotig‘i bilan, ya’ni qalovini topib aytishdan cho‘chimasligi, chin iste’dod sohiblarini ilk qadamlaridanoq adabiy muhit ichida tarbiyalashga kamarbasta bo‘lishi, zarur bo‘lsa, astoydil himoya qila olishdagi insoniy jasorati, kasbiga sadoqati masalalarini ham chetlab o‘tmagani tabiiy holdir.

Menga E.Vohidovning adabiy to‘garaklarga atoqli shoirlar rahbarlik qilishlari kerak, degan fikrlari va bu borada ustoz G‘ayratiyni ibrat qilib ko‘rsatganlari ayniqsa ma’qul bo‘ldi. Chunki men va tengdoshlarim O‘zbekiston xalq Shoiri Iqbol Mirzo rahbarlik qilayotgan “Onajonim she’riyat” yoxud prof. Qurdosh Qahramonov boshqargan “Chashma” to‘garaklari misolida bunday ezgu amalning xayrli natijasini ko‘rib, his etib kelamiz. Shubhasiz, bu borada E.Vohidov singari ustoz so‘z san’atkorlari tajribasi, ham muhim ibrat maktabi bo‘la oladi. Jumladan, E.Vohidov talantning tabiatni, ilhom onlarining ilohiy sehr uzoqibasi haqida to‘xtalarkan: “Bu g‘ayri oddiy noyob holat. Shoir ilhom daqiqalaridagina haqiqiy shoir bo‘ladi.”, deb yozadi.

Darhaqiqat, kamtarona kuzatishlarimdan Shuni ilg‘adimki, menga tengdosh – tuyg‘udosh aksariyat yosh qalamkashlar ko‘pincha o‘zлari bitgan ayrim satrlardan keyinchalik hayratlanib yurishadi. O‘ylashimcha, bu hol ularning ilhom onlaridagi she’riy kayfiyat, toshqin tuyg‘ular harorati, hayolda tug‘ilgan poetik niyat yetilib

qog‘ozga tushgan go‘zal va farahbaxsh lahzalarga takror qayta olmasligidan kelib chiqadi.

Shoir talantning to‘qson to‘qqiz qismi mehnat, degan qarashni izohlarkan: “Ilhom uzluksiz izlanish, o‘qish, o‘rganish, mehnat qilish natijasidir”, deya ta’kidlaydi. Ajablanarli hol. Bu o‘rinda ilhom onlari g‘ayrishuuriy tabiat, ixtiyorsiz holatlari endilikda ongli jarayon sifatida izohlanmayaptimi? Yoki shoir yuqoridagi gaplarni XX asrning 70- yillarda ustuvor bo‘lgan materializmning mustahkam qo‘rg‘onlarini chuqur his etib, ehtiyotkorlik yuzasidan ilgari suryaptimi? Unday bo‘lsa, E.Vohidov dangal tarzda: “Ilhomsiz yozilgan asar sevgisiz olingan bo‘saday sovuq bo‘ladi”, demagan bo‘lardi.

Demak, muammo mohiyatini o‘zga nuqtalardan izlash lozim. Nazarimda, E.Vohidovning ijodiy mehnatga alohida haq berishida tinimsiz izlanish, fikr va tuyg‘ularni kamol toptirish, ifoda malakasini yuksaltirish, bilimdonlik va donishmandlik kasb etish nazarda tutilgan. Ayonki, shoir bo‘lish – bu alohida shaxsda beqiyos fazilat-sifatlar mujassamlanmog‘ini taqozo etadi. Lekin, bu jarayonda qay bir fazilat-sifat dominantlik qiladi? Bunga javob berarkan, E.Vohidov yozadi: “Iste’dod, bilim, mehnatsevarlik, zamon va makon tuyg‘usi, zakiylik, botirlik, qat’iyat, ruhan va jisman poklik,adolat tuyg‘usi, kurashchanlik, fidoyilik, hayratlanish va yona bilish va boshqa o‘nlab fazilatlar ...”

Baribir iste’dod birlamchi, qolgan hamma fazilatlar, shu jumladan professional bilimdonlik ham ikkilamchi.”

Demak, hamma gap iste’dod tug‘ma tabiat va uning o‘z-o‘ziga nisbatan talabchanlik tuyg‘usini yanada yuksaltirishiga bog‘liqdir. Adabiyot – so‘z san’ati. Kitobxонни poetik bahramand qiladigan mahsulot albatta, san’at darajasiga yuksalmog‘i lozim.

Ijodkordagi hayajon va shavq adabiy madaniyat bilan uyg‘unlashsagina bunga erishish mumkin. Buning uchun shaxsiy talabchanlik, ijodiy ishga qunt bilan kirishish, yashovchan asar yaratish yo‘lida uchrovchi turfa mashaqqatlarga sabrbardosh tuyg‘ulari yoshlik kezlardanoq tarbiyalanmog‘i kerak. Zotan dastavval, go‘zal fazilatlar sohibi shakllantiriladi, kamol toptiriladi, yuksaltiriladi.

Bunday adabiy ta’lim va tarbiya teran vorislik asosida kechadi. Yosh qalamkash mavjud an’analarni ijodiy o‘zlashtirishi, badiiylikning azaliy qoidalari: mantiqqa rioya qilish, sohir tabiat musiqiy ohanglarini ko‘ngil quloqlari bilan tinglab, shu negizda she’r ichki musiqasini ta’minalash, inson qalbining nozik holatlariga mutanosib yuksak hislarni nozik san’atlar va tagzamini baquvvat misralarda ifoda eta olish malakasini egallashi lozim. Toki kitobxonda ham badiiy matndagi holat-kechinmalarga esh tuyg‘u-hislar kurtak ochsin, barg yozsin, gullasin.

Xullas, E.Vohidov ijodiy merosi – talant tarbiyasi bilan bog‘liq adabiy ibrat maktabidan anglashiladigan umumlashtiruvchi, yaxlit mazmun-mohiyatni uning o‘z so‘zlari bilan : “Iste’dod nafasi bor joyda hayot bor”, tarzida ifodalash mumkin.

1.2. Istiqlol davri yosh ijodkorlar se‘riyatida lirik qahramon

Haqberdieva Dilnoza Kamol qizi hayo shevasini ardoqlaydi. So‘zdan ma’no va mantiq axtaradi. Insonni hayoli va hayosiz tarzda ikki qutbga ajratib qararkan, ilohiy qo‘llovga ehtiyoj sezadi:

*Hayosiz insonga qilmagin oshno,
Topmadim so‘zidan na mantiq, ma’no,
Ularning nazdida devonaman,o,
Allohim, Sen o‘zing to‘g‘ri yo‘l ko‘rsat!*

Uning lirik qahramoni “o‘zga” lar nazdida “devona” lik bo‘lib ko‘ringan so‘zga oshuftalik tuyg‘usi bilan yashaydi. Zohiriyl belgi-sifatlardan bezgani uchun o‘z nigohini inson botin olamiga qaratadi. Chorasizlikka chora axtarib, qog‘ozga yukunadi:

*Ba’zisi do‘stman der, lek ichi qaro,
Munofiq yuzini ko‘rsam dil pora,
Pora bo‘lgan dilga bormikan chora?
Allohim, Sen o‘zing to‘g‘ri yo‘l ko‘rsat!*

Lirik qahramon ba’zan, moddiy borliqdan kechish va she’riyat dunyosidan makon tutishga ahdlanadi:

*Yomonlarni ko‘rganim sayin,
Ketgim kelar dunyodan kechib...*

Biroq, bu ahdu paymon zinhor ishq va vafo uyg‘unligiyu sadoqat hamda fidokorlikdan zohirda sodir bo‘lmaydi. Shu ma’noda, bu she’rlar ruhida “topmadim”, “ko‘rmadim” radifli g‘azallar an’anasining kuchli ta’sirini payqash qiyin emas:

*Ul jonni fido aylab, sodiqlik ahdin joylab,
Ishqqa vafoni o‘rab, vafodor topilmadi...*

Yosh shoiraning dabdurustdan pand va nasihat ohangi, umidsizlik tuyg‘usiga berilishi kishini ajablantiradi:

Kim mani izlar bo 'lsa, dayrdin topgay rafiq,

Keldim unutmoq bo 'lib, vale ishqdin ijtinob.

Zotan, endi yigirma ikki bahorni qarshilagan qiz kechinilgan samimiuy tuyg'ularini izhor etishi, an'anaga ijodiy yondashishi lozim. Bizning nazarimizda, ishqdan "ijtinob" aylab, ya'ni qochib, "dayr" – mayxonadan makon tutish hissidan xalos bo'lmoq lozim. Buning uchun qaynoq hayot ichiga chuqurroq kirib borish, mustaqil yurtimizda sodir bo'layotgan bunyodkorlik ishlari va ularning qahramonlari ruhiy olamini kashf etishga musharraf bo'lishga intilmoq zarur. Illo, hamisha nafrat nafratga, mehr esa muhabbatga doyalik qiladi.

Vaqtli matbuotda **Niyatullo Nasimiy** taxallusi bilan ijodiy mashqlarini e'lon qilayotgan yosh qalamkash bitiklarida ona yurt va qadrdon yurtdoshlarini ardoqlash mavzusi yetakchilik qiladi. Shunga qaramasdan, bunday she'rler ko'tarinki pafos va shiorbop ta'kidlardan xoli emas:

Xalqim orin tutib qo 'limda,

Tinchlik hissin tuyib dilimda.

O 'zbek nomi tushmay tilimdan,

Vatanimga xizmat qilaman.

Shubhasiz, shoир sevgi va muhabbat temasini ham chetlab o'tolmaydi. U sog'inch va hijron kabi noxushliklar misoli tush kabi unut bo'lishi, erta- indin baxt ostonada kulib qarshilashiga ishonadi:

Ko 'zim yumgim kelar har safar,

Noxushlikka qolsam o 'ralib.

Qayg 'u so 'zim yozilgan daftar,

Tushda baxtga qolsin aylanib.

Muhabbatsiz orttirgan tonglar,

Armonlar ham ketsinlar nari...

Dil hijronda yutadi qonlar,

Tushlarimga aylansin bari.

Muhimi, shoir moddiy dunyoning barcha g‘am hamda tashvishlari misoli tushday unut bo‘lishi, olam yasharishi, oqlik va poklikka burkanishini tilaydi.

Rasul Ro‘zievning ash’orlarida Ona ardog‘i yorqin ko‘zga tashlanadi:

Qalbimni hijronlar kemirib yotar,

Jonimda armonlar semirib yotar,

Alamlar qonimni kemirib yotar...

kabi e’tiroflar zamirida farzandning ulkan qarzdorlik hissi namoyon bo‘lgan. Zotan, she’rga milliy ruh bag‘ishlagan bosh omil ham, o‘zini butkul unutib, oilasi va farzandlariga baxshida eta olgan o‘zbek ayolini ardoqlash, vaqtida anglanmagan fidokorlik tug‘dirgan samimiy tuyg‘ular izhoridir.

Tegramda aylanib o‘tmoqda yillar,

Sen boshqa,

Men boshqa,

U boshqa dunyo...

singari she’rlardan anglashiladiki, R.Ro‘ziev yoshi ulg‘aygan sari atrofga tiyan nigoh bilan boqishga intilayotgan, istiqbolidan umid qilish mumkin bo‘lgan yosh shoirdir.

Ilhom Salimov ash’orlaridan adirlarning ifori, qadrlarning nafasi ufurib, faqirona hayot manzaralari, sabrli el qiyofasi yorqin ko‘rinib turadi. Shuning uchun ham shoir: “*Sen she’r emas, sen – menin umrim*”, deyishga to‘la haqlidir.

Binobarin, jimlik zamirida ta’nayu dashnomlardan mutlaqo yiroq itoatkorlik – qismatga ko‘nish tuyg‘usi mujassam:

Bitta yomg‘irdan ham topmadik pana,

Taqdirning hukmidan qayga qochamiz?

She’rda hayqiriq, nido va ezg‘in nola bor. Faqat u bo‘g‘izda qotgan va ma’yus bir o‘kinch sifatida ko‘z qaroqlarida akslanadi.

Olis shahar shovqinli ko‘chalarida sarson kezinib, ilk kitobini chiqarishga muvaffaq bo‘lgan Shoirning yolg‘onu chin olqishlar girdobida qolib, qadrdon qishlog‘i va munis onaizorini sog‘inib bitgan ushbu satrlarida zarracha yolg‘on

yo‘q. Aksincha, unda mehribon onaizoridan loaqal holing ne? -deb so‘rashga-da yaramagan o‘g‘ilning o‘kinch va armonlar jo bo‘lgan:

Hech birin o‘qima, hammasini yoq,

Ozgina bo‘lsa ham uying isisin.

Shubhasiz, shoir bolam, deb ardoqlab, faxrlanib yurgan onaizor bu she’rlarni yoqmaydi va qog‘oz bilan uy isimaydi. Ammo butun poetik joziba qudrati ham lirik qahramon qalbida yoshlikning ayozli tunlarida hovlida o‘tin orqalab yurgan onaizordan ko‘ngil uzolmagan dardchil qalbining suvrati chizilganida. Yuzlab She’rlar ona yoqqan bitta alangaga teng kelolmasligi teran his qilinganida namoyon bo‘ladi. O‘zbekona qadr, “*bemehrlik*” qa’ridagi poyonsiz mehr chizgilari kitobxonni ham beixtiyor yoshlik yillari xotiralari, qadrdon qishlog‘i va xokisor onaizori yodi sari yetaklay oladi.

Yosh ijodkor **Shohro‘zbek Umarjonovning**:

Raqqosadek o‘yinga tushdi qalamim,

Osmonga varrakdek uchirdim she’rlar.

deya bitganlaridan ham ko‘rinib turibdiki, uning she’rlarida yoshlik, beg‘ubor tuyg‘ular nafasi ufurib turadi. U yuksak marralarni ko‘zlayotgan, qalbi orzularga limmo-lim yoshlardan biridir:

Eng katta orzuyim, ko‘nglimda bugun,

Yurtim, senga sovg‘a qilaman “Nobel”!

Jonajon vatani ravnaqiga o‘z hissasini qo‘sishni hayotdagি asosiy maqsadi deb biladigan intiluvchan tengdoshimizning barcha orzulari amalga oshishiga tilakdoshmiz.

Yosh shoir o‘z ijod namunalarida vatanga, onaga, yorga va she’riyatga bo‘lgan cheksiz muhabbatini samimiyo so‘zlar ila ifodalashga harakat qiladi. U Onajoniga atalgan she’rida : *Farzandingiz-idish, siz-kulol*” deb yozadi.

Qalbingiz Ka’ba men uchun,

Uni obod etayin har vaqt .

Yosh shoir Ona qalbini Ka’badek muqaddas maskanga qiyoslashi va uni obod etishni o‘zi uchun sharafli burch ekanligini anglashi barobarida, ona uning

yorug‘ istiqboliga umid nigohlarini tikkanini teran his qiladi.Yuqoridagi kabi umidbaxsh misralar muallifi ba’zi o‘rinlarda oshkora didaktikaga berilib ketishi bizni hayron qoldiradi:

*Yaxshilik qil,savob ish qil,mehnat qil,
Shior bo ‘lsin:Dil bay yor-u dast ba kor.*

Yosh yigitning kutilmaganda:”*Mansuri an al-haq bo ‘lib o ‘tsaydim*” deyishi yoki “*Haqiqat,adolat uchun qadam bos,Faqat rost so ‘zlagin toki tiriksan*”deya nasihotomuz ohangda so‘zlashi uning yoshiga mos emasdek tuyuladi.Ayni yoshdagi insonga umid,fidoyilik,kuraShuvchanlik ruhiga to‘la she’rlar munosib deb o‘layman.Ba’zi o‘rinlarda esa shoir:

*Kungaboqaringman bulutli quyosh,
Ko ‘z yoshim sumalak bo ‘lib muzladi.
Ildizim sug‘organ suv emas -ko ‘z yosh,
Nur tegmagan bargim butkul bo ‘zladi.*

deya kuchli iztirob chekishini kuzatishimiz mumkin.U “*Dardimdan teraklar bo ‘ldi simyog ‘och*”jumlesi orqali dardning kuchlilik darajasini ifodalashga urinadi. Ijodkorning to‘rtliklarida bu dardning yanada ta’sirliroq ifodasini ko‘ramiz:

*Ko ‘rib sizni men haqiqiy mard bo ‘ldim,
Oshiq bo ‘ldim va sohibi dard bo ‘ldim.
Oshiqlikni da ’vo qilsam har qancha,*

Davo topmay rangi-ro‘yi zard bo‘ldim.To‘rtlikdagi mard,dard,zard so‘zlarining qofiyadosh so‘zlar sifatida berilishi hamda da’vo va davo paronim so‘zlarining qo‘llanilishi she’rga o‘ziga xos ma’no bag‘ishlagan.Ijodkor:

*Agar oshiqda ishq
Bo ‘lsa mukammal,
Tosh yurakni
Tafti bilan eritur.*

deya o‘z-o‘ziga taskin berib,umidini so‘ndirmasligi kabi holatlar bizni quvontiradi. Shoирning ko‘pgina she’rlarini o‘qir ekanmiz dard tufayli tushkunlikka tushish Shoxro‘zbek uchun she’rdagi oniy holat ekanligini,uning ko‘zлari hamisha

kelajakka katta ishonch va umid bilan boqishiga amin bo‘lamiz.Buni quyidagi she’r ham tasdiqlaydi:

*Hikmat izlaganga berildi hikmat,
Sen baxtni izlagin o‘z yuragingdan.
Bir kuni kelsa ham agar qiyomat,
Tabassum qilaver yashaganingdan.
Baxt biz erishmagan saroblar emas,
Usenga atalgan tabiiy ne’matlar.
Mashaqqat sen uchun azoblar emas,
O’sha izlaganing-Oliy hikmatlar.*

Shohro‘zbekning ijod namunalariga nazar tashlar ekanmiz,Mashrab,Bobur kabi mumtoz shoirlarimiz she’rlaridan ta’sirlanib,ularning she’rlaridan epigraflar keltirganining guvohi bo‘lamiz.Intiluvchan tengdoshimiz yangi-yangi usullarda ash’orlar bitishga harakat qiladi.Uning musoviyatarafayn shaklidagi she’ri ham izlanishlarining natijasidir:

<i>Yorim</i>	<i>Har tun</i>	<i>Uyimda</i>	<i>Bo‘lgin!</i>
<i>Har tun</i>	<i>qilgin</i>	<i>ravshan</i>	<i>Yuragim!</i>
<i>Uyimda</i>	<i>ravshan</i>	<i>Oyim</i>	<i>Bo‘lgin!</i>
<i>Bo‘lgin-</i>	<i>Yuragim,</i>	<i>Bo‘lgin-</i>	<i>Keragim!</i>

Bilamizki, musoviyatarafaynning yuksak namunasi Ogahiy ijodida uchraydi. Shohro‘zbekning bu yo‘ldagi izlanishi ayrim kamchiliklardan holi bo‘lmasa-da,uning intiluvchanligi tahsinga loyiq.

Bugungi o’zbek she’riyati markazida turgan lirik qahramon zamondoshimiz qalbida kechayotgan his-tuyg‘ularni XXI asr kishisining tafakkur tarzi, ruhiy evrilishlari fonida ifoda etmoqda. Agar istiqlololgacha bo‘lgan davr o’zbek she’riyatida lirik qahramon tuyg‘ulari ifodasi orqali uning qalbini anglashga, poetik tadqiq-u tahlil qilishga intilish ko‘zga tashlansa, keyingi yillarda yaratilayotgan lirika namunalari biz ko‘nikkan shakl va uslub chegaralaridan

«qalqib chiqib», e’tiborimizni turfa manzaralar tasviriga qaratmoqda. Shu yo’lda izlanishlar olib borayotgan umidli ijodkorlardan yana biri **Shokir Yo’ldosh** she’rlari alohida e’tirofga loyiqidir. She’riyatni hayotining asosiy mazmuni deb bilgan shoir:

Mening bolam she’rdir, ayolim ilhom.

deb yozadi. Shokir Yo’ldosh she’rlarining asosiy qismini mehr-oqibat, muhabbat mavzuyidagi she’rlar tashkil qiladi. Uning:

Bir parcha go ‘shtdan nima farqi bor

Mehr-muhabbatsiz yurakning...

deya ta’kidlashida olam-olam ma’no mujassam. Insonlar o’rtasidagi oqibatning ko‘p hollarda unutilib qo‘yilishi shoirning uyg‘oq yuragini doim tashvishga soladi. Uni sog‘inch iztiroblari o’rtaydi. Ammo bu faqat suyukli oshiq yo‘llariga nigoron dil izhori emas, balki olis qishloq hamda mushfiq onaizor alqovidir. Nazarimizda, ona poyiga yiqlishga talpinmagan inson bo‘lmasa kerak. Ammo, diydor tuhfasi uchun hislarini poyandoz qilmoq va she’riyat mintaqasidan yupanch izlamoq chin Shoir ilkidagi a’moldir.

Shaharda yurib, uzoq qishloqdagi onasining holidan xabar ololmayotgani, onaning uni o‘ylab tun-u kun tashvish tortishi, sog‘inch azoblari shoir qalbini o’rtaydi:

G‘amimni yeydi-ya g‘amlari kamday,

Kamimni o‘ylaydi kamlari kamday,

Sog‘intirib qo‘ydim namlari kamday,

Onamning yoshini arting chinorlar.

“G‘amlari”, “Kamlari”, “Namlari” so‘zlarining qofiyadoshlik hosil qilishi She’rga o‘ziga xos ta’sirchanlik bag‘ishlagan. Yosh ijodkor uni Shoirga aylantirgan ilk muhabbatni sog‘inib bir qator she’rlar bitadi. Ba’zida tilida “*Men seni unutdim, unuta oldim*” deya jar solishga urinsada,

Sensizlikda aprel oyi ham oxirlab qoldi...

Lekin hanuz hovlimdagi bodom gullamadi...

kabi hijron azoblarini ifodalagan satrlari dilida hamon muhabbat olov so‘nmaganini sotib qo‘yadi va inson muhabbat bilan tirik ekanligini isbotlaydi. Muhabbat poyida dildan tilga ko‘chgan bu toza tuyg‘u anglangan kechinma ekanligi bilan ham qadrlidir. Shoir uchqur hayollari sarrin yel, musaffo tong, xazonrez bargu olis samovot sari sochilib ketsa-da, u bariga shafqat nazari bilan boqadi. Zotan, uning ko‘ngli bunday kenglik va yuksaklik qamrovidan yana zaminga qaytib, o‘zining bandalik maqomida turishga qodir. Taqdirdan tuhfa kutayotgan betoqat qalb sohibi intizor nigohlarida shukrona, harakatlarida musallamlik maqomi oshkor. Yana bir o‘rinda lirik qahramon: “*Sensiz devorlarning rangi oqargan*”deya faryod chekadi. Uning muhabbat va hijron motivlari mehvarida soddalik va samimiyat, zig‘ircha qadrdan o‘zga tilagi bo‘lmagan sohir qalb armonlari silqib turadi.

She’rlarimdan ufurar hamon,

Yodning o’sha achchiq faryodi

Misralarida esa lirik qahramon haqiqatni barilla tan olishining guvohi bo‘lamiz. Zotan, uning dil qo‘rg‘onidagi satrlarda hislar ifodasi betakror jarang kasb etadi. Tug‘ilish va yashash mazmunini mehr-muhabbatda ko‘rgan shokirbek yoriga qarata:

Ketsang kim tebratar yurakkinamning,

Hislar yotqizilgan beshiklarini...

eb nola qiladi.Lekin og‘ir iztiroblar va taqdir sinovlari lirik qahramonning ruhini sindirolmaydi:

Ko ‘ksimda umidim uchquni yoniq,

Alanga oladi tun yorgan kunday...

Tilagimiz yosh va iste’dodli ijodkor Shokir Yo‘ldoshning ko‘ksidagi ana shu umid uchquni aslo so‘nmasin.Yoniq She’rlaridan iborat guldstalar bilan she’riyat atalmish gulzorni bezashda davom etsin.

Yana bir yosh va umidli ijodkor **Quvonchbek Mamiraliyev** ko‘ngil oynasi bo‘lmish-she’rlarini tahlilga tortamiz:

*Qanday sir bor bilolmas hech kim ,
 Osmonlarning tashqarisida.
 ISHQ degan bir buyuk qo‘rg‘on bor,
 Chap yonimning ichkarisida.
 Ulog‘ini bermas o‘zgaga,
 Dunyolarning ko‘pkarisida.
 VATAN deya ot chopadi u,
 Chap yonimning ichkarisida.*

Uning she’rlarida tuyg‘ular nafosati va ifoda malohati mavjlanib turadi. She’rlarining samimiy ohangi o‘qishlilagini ta’minlaydi:

*Ishqim ishqing ichiga,
 Bir kun albat joylagum.
 Qalbimning ko‘zi bilan
 Yuragingni poylagum.*

Baxtli kunlar kelishiga bo‘lgan cheksiz ishonch iforlari shoirning har bir satridan ufurib turadi:

*Hijronning yomg‘irini
 Jala bo‘lib loylagum.
 Yo‘limdan chiqqan g‘amni
 Baxt yoniga boylagum.*

Shoirming she’rlarini mutolaa qilar ekanmiz,u uchun ko‘ngil amriga qulqoq tutish doim birlamchi o‘rinda ekanligini anglaymiz:

*Yo‘llar olis, manzil olis
 Yetolmayman...
 Yuragimni tashlab yolg‘iz,
 Ketolmayman...*

Xalq qo‘shiqilarini eslatuvchi yuqoridagi kabi satrlarda shoirning ruhiy olami go‘zal bir shaklda ifodasini topgan. ”So‘rayveraman” nomli she’rida Zebo Mirzoning:

Ayt qaydan topasan qochmoqqa imkon,

Men seni Xudodan so 'rayveraman...

satrlarini epigraf sifatida keltirishi Quvonchbekning el ardog‘idagi shoirlar ijodi bilan yaqindan tanish ekanligidan dalolat beradi.Ularning ijodi bilan shunchaki tanish bo‘libgina qolmay,ustozlar she’rlaridan ta’sirlanib she’rlar yarata olishi ijodkorning mahorati va adabiyotga mehri natijasidir:

Sevmasang ham aslo ketmayman kechib,

Ko ‘zlaringga qarab kuylayveraman.

Hayyomdan qolgan ul maylardan ichib,

Men sendan Xudoni so 'rayveraman.

Zebo Mirzo she’ridan farqli ravishda “*Men sendan Xudoni so 'rayveraman*” naqoratining berilishi ifoda teranligining go‘zal namunasidir.Ya’ni shoir yorning chehrasida Tangrining jamolini ko‘radi.Barcha shoirlardagi kabi abadiy mavzumuhabbat mavzusi Quvonchbek ijodida ham yetakchilik qiladi:

Quvonchni bilaman, qayg‘u yo ‘q menda,

Hijronni ezaman, qiynayveraman.

ISHQdan buyuk o ‘zga tuyg‘u yo ‘q menda,

Men sendan Xudoni so 'rayveraman.

Quvonchbekning she’rlarida muhabbat hech bir shoirnikiga o‘xshamagan ,o‘zgacha tarzda kuylanadi:

Ko ‘zimizda shaxt bilan,

Dilimizda baxt bilan,

Ajib shirin dard bilan,

Mehrbo ‘ron o ‘ynaylik...

“Qorbo‘ron” shubhasiz hammaga tanish so‘z,ammo,”mehrbo‘ron”ni shoirning go‘zal topilmasi deyishimiz mumkin.Tatar shoiri Hodi Toqtashning “muhabbat o‘zi eski narsa.Har bir dil uni yongortadi”deya ta’kidlagani bejiz emasligini Quvonchbekning quyidagi satrlari ham tasdiqlaydi:

Yuragimga ishonsang bo ‘ldi,

Tomirlarim — ko ‘kdagi chaqin.

Tuyg‘ularim osmoniy mening,

Chunki ular Xudoga yaqin.

Shoir kelajakka umid ila boqib, shunday yozadi:

Bizning baxtni ko‘rib hattoki,

Baxtning o‘zi hayron bo‘ladi.

Shoirning ijod namunalarini kuzatganimizda she’rlarida asosan tazod san’atidan foydalanishining guvohi bo‘ldik:

Kuysak ishq nuridan kuyamiz,

Hijron bor ,g‘amlar bor ko‘namiz,

Baxtimizni baham ko‘ramiz,

Barobar ikkiga bo‘lishib.

Kun-tun,baxt-hijron,quvonch-qayg‘u kabi antonimlar uning She’rlarida juda ko‘p uchraydi:

Kut meni Quyoshli tunlarda,

Oyli va yulduzli kunlarda,

Har nafas,har on,unlarda,

Boraman havoga qorishib...

Yuqorida berilgan she’rda yana bir holat- tashbexning ajoyib ko‘rinishiga ham duch kelamiz.Shoir: “quyoshli tunlarda” va “oyli va yulduzli kunlarda” deb yozadi.Tabiat qonuniga ko‘ra oy va yulduzlar tunda,quyosh esa kunduzi ko‘rinishini yaxshi bilgan kitobxonni bu noodatiy o‘xshatish ajablantiradi. Ammo,ayni shu noodatiylik she’rning jozibasini ,o‘ziga xosligini ta’minlab turibdi. Quvonchbekning fard va musallas janrlaridagi mashqlarini o‘qib,uning mumtoz she’riyatdan ham bexabar emasligiga amin bo‘ldik:

Muhabbat sarhadsiz tuyg‘udir...

Tonggi va bahorgi uyqudir...

Fard janrida yozilgan yuqoridagi misralar sodda va hayotiyligi bilan e’tiborni tortadi.Musallas janridagi she’rida ham ana shu tuyg‘ular nafasi sezilib turibdi:

Sen hamisha bahorsan...

Senda boshqa fasl yo‘q...

Yuragimda gullagan Daraxt...

Sen hamisha kuzaksan...

Sendan go'zal qasr yo'q...

Yuragimda sarg'aygan Daraxt...

Sen hamisha hayotsan...

Sendan o'zga hayot yo'q...

Yuragimda ulg'aygan daraxt...

Quvonchbekning she'rlarida bir vaqtning o'zida ham baxt ham baxtsizlik kabi qorishiq tuyg'ularning ifodalanishining ajablanarli jihat yo'q.Chunki hayot falsafasi shunday:ezgulik va yovuzlik,baxt va hijron,quvonch va qayg'u doim yonma-yon.Yuragi uyg'oq har bir insonning qalbida ana shu turli qorishiq hislar o'rtasida kurash uzlucksiz davom etadi.Ayniqsa,ijodkor ahli qalbida bu kurash jarayoni oddiy insonlardagiga nisbatan bir necha barobar kuchliroq davom etadi.

Shoirning ijodkorlik mahorati uning to'rtliklarida ham yaqqol namoyon bo'ladi:

Seni qayta kuylayveraman,

Har she'rimning naqoratida.

Sening barcha harakatlarning

Yuragimning nazoratida.

Ortiqcha jimjimador so'zlardan holi,sodda she'rlar barcha uchun tushunarli bo'la oladi va yuraklarga yetib boradi:

Shirin tushlar ko'ring mayliga,

Hatto tunni qo'yning to'xtatib.

Ko'zlarining orom olsin, lek

QALBingizni qo'y mang uxlatib.

Yosh ijodkor yangi topilmalarni she'riyatga olib kirishga harakat qilishi ham uning yutuqlaridandir:

*Xonamdagি gardlarnи,
Yutib olar changyutgich.
Qayerda bor dardlarnи
Yutadigan G‘AMYUTGICH*

“Gardlarnи”, “dardlarnи” so‘zlarining qofiyadoshligi to‘rtlikning ta’sir kuchini oshirgan bo‘lsa, “**g‘amyutgich**” topilmasi shoirning poetic fikrlash tarzini ko‘rsatib beradi. Yana bir to‘rtlikda esa:

*Dunyoni so‘z bilan uyg‘yotib qo‘ying,
Bo‘lmangiz, mayliga shoir-u tilchi.
Inson o‘zligini anglamoq uchun,
DILCHI bo‘lish kerak, haqiqiy **DILCHI**.*

“dilchi” so‘zi shoirning yangiligidir. Ushbu to‘rtlik katta ma’no-mazmun ifodalaganligi jihatidan ham e’tiborlidir. Ya’ni inson o‘zligini va borliqni anglashi uchun adabiyot kishisi yoki tilshunos bo‘lishi shart emas. Asosiysi , qalb ko‘zimiz ochiq bo‘lishi lozimligi haqidagi qarashlar ilgari surilgan.

Etuk she’riy asar yuzaga kelishida tug‘ma qobiliyat, katta hayotiy tajriba, tiniq aql-idrok, teran fikr-mulohaza, ichki butunlik muhim o‘rin tutadi. Shundagina badiiy yaratiq insoniy munsabatlar go‘zal ifodasiga aylanadi. Kitobxon fikrtuyg‘ularini muvozanatdan chiqaradi. Buning uchun lirik asar hissiy-emotsional to‘yintirilgan, musiqiy jarangdor bo‘lishi, unda shakl, mazmun va ohang o‘zaro uyg‘un kelishi, hosil qilingan kayfiyat-kechinma o‘quvchiga “yuqtirilishi” shart.

Mustaqillik yillarida iste’dodli va iqtidorli yoshlarga e’tibor behad ortdi. Biz buni O‘zbekiston Respublikasining “YOshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” gi Qonuni⁹ misolida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. ZOTAN, ushbu Qonun hujjati yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni bosh maqsad qilgani bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Mustaqil yurtimizda o‘sib kelayotgan biz yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish: intellektual, ijodiyl salohiyatimizni kamol toptirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilishi nazarda tutilgani, buning uchun ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar

⁹ Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида. (ЎРҚ-406-сон) 2016 йил 14 сентябрь.

tizimi yaratilgani qalbimizga cheksiz g‘urur va iftihor bag‘ishlaydi. Bunday g‘amxo‘rlikni sobiq sho‘rolar tuzumi paytida faqat orzu qilish mumkin edi. Ta’kidlash o‘rinliki, o‘z mamlakati yoshlarini ijtimoiy jihatdan shakllantirish, ularning intellektual, ijodiy salohiyatini yanada kamol toptirish uchun astoydil kamarbasta bo‘lgan erkin va ozod yurtning ertasi yanada nurafshon, istiqboli porloq bo‘lishiga shak-shubha yo‘qdir.

II bob.T ‘LIM TIZIMIDA MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK SHE‘RIYATINING O‘RGANILISHI

2.1 Istiqlol davri she‘riyatini o‘rganishning metodik asoslari

Mustaqillik yillari qator shoir va yozuvchilarimizning, muayyan ma’nodagi, ijodiy sarhisob davri bo‘ldi. Bu davrda Abdulla Oripov va Erkin Vohidovning ko‘pjildlik asarlari nashr etiladi. Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf, Omon Matjon, Halima Xudoyberdiyeva, Usmon Azim, Mirpo‘lat Mirzayev, Azim Suyunning „ Saylanma “ lari bosilib chiqdi. Mustaqillikdan avval yozilganlari bilan bir qatorda istiqlol davrida yozilgan asarlar ham o‘rin olgan ko‘p jidlik va saylanmalarga nazar tashlar ekansiz, keyingi davrdagi ijod namunalarda avvalgi bosqichdagi asarlarga xos bo‘limgan Vatan, Iстиqlol, Erk mavzu va muammolarning yangicha tasvirlariga, yangicha uslubiy talqinlarga va bu yo‘nalishdagi yangi-yangi badiiy obrazlar, timsollariga duch kelamiz. Sirojiddin Sayyid vatanga bo‘lgan muhabbatini quyidagicha ifodalaydi:

Ochsang davronlarning kitoblarini,

Qancha karvonlarning ertagi bordir.

Tingla donolarning xitoblarini:

Egasi bor yurtning-ertasi bordir.

Sirojiddin Sayyid she’rlarining asosiy mavzusi vatan, erk mavzulari hisoblanadi va uning shu mavzudagi she’rlarida biroz didaktikaga berilish mavjudligini kuzatishimiz mumkin. Sirojiddin Sayyid uchun she’r – ruhiy sog‘inch, Shoirlik esa qismat. Shoir o‘z burchini ana shu tushunchalar uyg‘unligida ko‘radi, “misralar bilan dardlashar ekan o‘z borlig‘ini”, ijodkor sifatidagi “bisotini” shunday izohlaydi:

Ishqdan bo‘lak titrog‘im yo‘qdir,

Yo‘qdir she’rdan bo‘lak hech larzam.

Do‘stlarimdan boshqa hech kimim

Yordan-ko ‘kdan boshqa hech narsam¹⁰.

*Dunyoni xayr ila xo ‘shlarda ko ‘rdik,
Yuksak parvozlarni qushlarda ko ‘rdik,
Kechgan umrimizni qaytarib bo ‘lmas,
Go ‘yoki biz uni tushlarga ko ‘rdik.*

*Men bunda har dildan navolar oldim,
Har giyoh har guldan sabolar oldim.
Oq fotiha oldim oppoq tog‘lardan
Azim chinorlardan duolar oldim. (193-bet)*

Bu – shoirning hayot dasturi. Uning ma’no-mohiyati, “ishq”, “she’r”, “haq so‘z”, “do‘st”, “Vatan” tayanch so‘zlarining mantiqiy sintezida aks etgan. Darhaqiqat azaliy ishq – ijodkor qalbidagi bezovtalik va dard, dilning Yagona mulki! Do‘stsiz va yeru ko‘ksiz esa shoir o‘zligi yo‘q. Chunki oliy xilqat – Inson ruhi va jismi ular bilan payvanddir. Bu haqiqatni shoir alohida qayd etadi:

*Xudoyim, shukrkim, qoshu ko ‘z berding,
Yana tillarimga ravon so ‘z berding,
Pushtu panoh berding, menga o ‘zingdan,
Yana o ‘z dilimday sodiq do ‘st berding. (194-bet).*

Shoirning sarhad bilmas ko‘ngliga butun dunyo sig‘adi. Olam sevinchlari-yu tashvishlari, olam ruhiyati-yu intilishlari ijodkor dunyoqarashi va badiiy mushohadalari bilan sayqallashib, ezgulikka mehr, yovuzlikka nafrat uyg‘otishga chorlaydi. G‘aflat shoir nazdida kunduzning tuni – “oqshomi” inson uchun fojea, “ming darddan ham og‘ir” kulfat. G‘aflatdan uyg‘otmoq – shoir ning burchi.

*Ma ’rifatsiz yurtning zavoli bo ‘lg ‘ay,
Uning na iqboli, na kamoli bo ‘lg ‘ay,
Xotinlari qallob, erlari kazzob,
Eli xalq bo ‘lmagay, aholi bo ‘lg ‘ay. (217-bet)*

¹⁰ Сирохиддин Сайид. Суз йули.2 жилд.Т.: Шарқ.,194 б. Барча кучирмалар шу нашрдан олинди.

Mustaqillik qo‘lga kiritilgandan so‘ng erk g‘oyalari adabiyot va san’atda ham o‘z aksini topa boshladi. Xuddi shunday orzular qanotida o‘zbek adabiyotida xalqning o‘tmishi, buguni va ertasini kuylagan shoir lardan biri Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyid sanaladi. shoir ning ko‘plab she’rlari xalq poetik ijodidagi shakllarga yaqin turadi. Bu esa shoirning xalq poetik ijodini tinimsiz o‘rganib, ulardan oziqlanganligini va ijodiy foydalanganligidan dalolat beradi. U o‘z ijodida goh xalq qo‘shiqlaridan, laparlardan foydalansa, goh xalq maqollariyu iboralarini mahorat bilan she’rga singdirib yuboradi. Mustaqillik qo‘lga kiritilgandan so‘ng erk g‘oyalari adabiyot va san’atda ham o‘z aksini topa boshladi. Xuddi shunday orzular qanotida o‘zbek adabiyotida xalqning o‘tmishi, buguni va ertasini kuylagan shoirlardan biri Muhammad Yusuf sanaladi. Shoirning ko‘plab she’rlari xalq poetik ijodidagi shakllarga yaqin turadi. Bu esa shoirning xalq poetik ijodini tinimsiz o‘rganib, ulardan oziqlanganligini va ijodiy foydalanganligidan dalolat beradi. U o‘z ijodida goh xalq qo‘shiqlaridan, laparlardan foydalansa, goh xalq maqollariyu iboralarini mahorat bilan she’rga singdirib yuboradi. “Kechagina qishloqdagi qizlarning bari”, “Ko‘nglimdagi yor”, “Onaizor”, “Samarqand”, “Kelinchak”, “Eslash”, “Sevgi sadosi”, “Madhiya”, “Iftixor”, “Vatanim”, “Chimildiq”, “Xalqona”, “Ajab”, “Qiyosi yo‘q aslo” kabi asarlari xalqchillik bilan sug‘orilgan she’rlar qatoridan o‘rin olgan. She’r – shoirning o‘zligi, uning mohiyati. shunga ko‘ra, Muhammad Yusuf ijodida xalqona tafakkur tarzining ustunligi shoirning fikrlash va turmush tarzi, dunyoqarashi, boringki, butun borlig‘i xalqqa judayam yaqin ekanligidan, ruhiyatidagi to‘lqinlaru hissiyot mavjlarini boshqacha ifodalay olmasligidan dalolatdir. Shu sabab shoir har bir tasvirlanayotgan voqeа-hodisaga, masalaga xalq manfaatlari va orzu-umidlari nuqtai nazaridan yondashadi, umuminsoniy dunyoqarashni va g‘oyaviylikni namoyish etadi.

Muhammad Yusuf “Xalq bo‘l, elim” she’ri orqali xalq ongiga birdamlik, hamjihatlik, hamfikrlik kabi g‘oyalarni singdirishga intiladi. Bu harakat she’rning bosh pafosiga aylangan. Ushbu she’r xalqni birdamlikka chorlashi bilan ajralib

turadi. Shoira Muhammad Yusuf esa elni xalq bo‘lishga chorlab tarixning ayovsiz g‘ildiragi ostida toptalib kelgan, sobiq Ittifoq davrida o‘zining kimligini ham unutayozgan elini, xalq bo‘lib yashashiga umid ko‘zi ila qaraydi. Xalq bo‘lib birlashgan va yashagan davrlarini esa bir-bir eslatadi.

*Qadim yurtga qaytsin qadim navolarim,
Qumlar bosib qurimasin daryolarim.
Alpomishga alla aytgan momolarim
Ruhini shod etay desang – xalq bo‘l, elim”.*

Yangi bosqich o’zbek she’riyatining ko‘لامи yanada kengaydi.Gap,bu yerda mavzu va muammolar kengligidagina emas.Ana shu mavzu va muammolarning ifoda tarzi,badiiy tahlil etish san’ati,uslublar rang-barangligi,xalq yo‘lidagi baxshiyona, xalq dostonlari, termalari yo‘lidan tortib,masnavi-yu g‘azal, G‘arb adabiyoting sonnet va modern yo‘nalishidagi she’rlardan tortib,olis yapon she’riyatidagi tanka, xokku shakllaridagi asarlargacha paydo bo‘ldi. To‘gri, bu shakllarning aksariyati She’riyatimizda ilgari bosqichda ham mavjud edi.Biroq bu shakl va yo‘nalishlarda endi yangi davr muommolari, istiqlol davri kishisining ichki dunyosi va intilishlarini tasvirlashga bo‘ysundurilgan yangi obrazlar, yangi tasvir vositalari, yangi g‘oyalar o‘z ifodasini topa boshladi.

Yuqoridagi kitoblar yoniga Rauf Parfining “Tavba”, Sirojiddin Sayyidning “Qaldirg‘ochlarga ber ayvoningni,” “Ko‘ksimdagি zangorlarim”, “Vatanni o‘rganish,” Matnazar Abdulhakimning “Oydinlik” Faxriyorning “Ayolg‘u”, Mahmud Toirning “Haqni tanib“ nomli to‘plamlarini, Tohir Qahhor, Qutlibeka Rahimboyeva, Farida Afro‘z , Minhojiddin Mirzo va Iqbol Mirzolarning qator yangi she’rlarini qo‘ysak ham bulardagi sanoqgina emas , sifatni ham e’tiborga olsak, bu yillardagi she’riyatimiz , ayrimlar balanddan kelib aytgandek , Shunchaki o‘rtamiyona emas , anchagina salmoqli va zalvorli ekani ham ma’lum bo‘ladi .

Shoira **Farog‘at Xudoyqulovan**ing “Oq xatlar” kitobi tahlili misolida yuqoridagi fikrlarimizni asoslaymiz. Farog‘at Xudoyqulova – ruhan bedor va xassos shoira. Uni bedorlikka chorlab turgan his bu – kindik qoni tomgan mo‘jaz makon, ne-ne

ulug‘ Nasafiylargacha beshik bo‘lgan Qashqadaryo zaminidan limmmo-lim toshib kelib ko‘ngliga ingan qadim bobolarning muborak ruhi. Shu bois ham farzandlik burchi, shoirlilik mas’uliyatini chuqur anglagan Farog‘at opa iftihor bilan:

*Ildizimga hayot bergen Qashqadaryo,
So ‘zlarimni suvlaringda chaygandirman.
So ‘z ichinda so ‘z axtarib topgan tunim,
Farog‘ating senga bermish farog‘atin,
Holing so ‘rab borgum o ‘zim, Qashqadaryo.*

deya samimiy iqrorlarini misralarga to‘kadi. U qadim Turkiston tarixiga nazar tashlarkan, bir-birini muqarrar mahv etishga qasdlangan xoinlik va botirlik, loqaydlik va bedorlik, zulm va haqiqat tushunchalariga nechog‘lik yovuqlik ikki qirg‘oqqa ajratib tashlagan bir butun el taqdiridan goh alam hamda iztirob, goh g‘urur va surur tuyadi.

Uning tuyg‘ulari baland lirik qahramoni tarix sukunati bag‘ridan po‘rtanavor so‘zlar saralab, keskir ovoz-la hayqirishga kuch topa oladi. CHunki el-yurtga muhabbat hislarining chayqalishi mudroq dilni uyg‘otib, umrga zeb, yurakka mador baxsh etadi. Bilaks, ohuday hurkak bir vujudning qanotlari shamshirday keskir tig‘ga aylanmagan bo‘lardi. Ha, ezgulikka baxshida umr sor lochinni muqarrar tarzda mangu yuksak cho‘qqilar sari eltajak. Bizningcha, “Oh, buncha azobli bedor yashamoq!”, deya nola qilayotgan ko‘ngil qushining dardchil to‘lg‘oqlari o‘quvchini ham xushyor torttirishga qodir.

Farog‘at Xudoyqulova qalbida ustozlarga yaqinlik, ular ma’naviyati, ijodiy merosidan kuch-quvvat olish, poetik mahorat asrорidan bahramand bo‘lishga intilish tuyg‘usi kuchli. Jumladan, ustoz Oybek CHimyon tog‘larida o‘zi dilxasta holda bo‘lishiga qaramay, ruhan kechingan bahoriy kayfiyat, lolalar kulgusi va na’mataklar nozidan sarmast bo‘lgan ijod onlari shoira tasavvurida qayta tiklanadi. Natijada, ulug‘ faylasuf shoirning azim tog‘lar, chamanzor qir-adirlar bag‘riga singgan nigohlari izini qalban his etadi, uning iliq nafasini tuyadi. She’mi o‘qir ekansiz, bahorning sokin bir oqshomida buloq boshida Oyning shafag‘ida qalamini labiga bosib xayolchan o‘tirgan ko‘yi qoyalarda gul ochgan na’mataklar bilan

sirlashib, olamning Yaratuvchisi chevarligidan mislsiz hayratlar tuygan siyomosi ko‘z o‘ngingizda qad rostlaydi.

Yulduzlar yonidan yaproqlar asta

Sirg‘alib tushdilar suvning yuziga.

Shoir uxlolmaydi, bedor, dilxasta,

Bahor oqshomlari tortar o‘ziga.

Ko‘rinadiki, Oybekona bedorlik va oydin oqshom sehriyu turfa gullar ishvakov tebranishlariga mahliyolik shoira ruhiyatiga ham begona emas. Uning o‘zbek she’riyati bo‘stonida mangu yangrayotgan xush saslarga dil qulog‘ini tutish, tabiat tuhfalaridan donishona ibrat olib, tog‘ nasimlari bilan tillasha olish salohiyati bundan yorqin guvohlik berishga qodir. Shuning uchun ham shoira o‘zini:

To ‘sma, men o‘z yo‘lida oqib turgan daryoman,

Toshsam alam, g‘amlarim qirg‘oqqa boz urilgay...

To ‘sma men o‘z yo‘limni topdim degan klinikda,

Bevaqt yoqqan qorlarni isitgay kuyik bag‘rim.

deb yozishga haqli sezadi. Bu satrlar beixtiyor tarzda A.Oripovning “Dunyon qizg‘onma mendan azizim”, deb boshlanuvchi mashhur satrlarini esga soladi. Zotan, Farog‘at Xudoyqulova ham Qashqadaryo zaminida tug‘ilgan. O‘zining baquvvat ruhli ashorlari bilan mudroq ruhlarni tiriltirishga shahdlanar ekan, ezgulikka muhabbat va jaholat, loqaydlik, beparvolik kabi illatlarga qarshi ulkan nafratga yo‘g‘rilgan tug‘yonli aytar so‘zi, istiqbolda ko‘zlagan aniq manzili borligini yashirib o‘tirmaydi. Bu kabi shiddat har bir she’rda ham ochiq-oshkor ko‘rinib turmaydi. Shunga qaramasdan, sokin irmoqday tuyulgan tirik satrlar bag‘rida po‘rtanavor tug‘yon nihon, bedor ko‘ngil kuyiklari hidi oshkor ekani his qilarlik darajada bo‘y ko‘rsatib turadi.

Farog‘at Xudoyqulova lirkasiga zeb bergen omillardan yana biri kechinmaning peyzaj manzaralarigi yo‘g‘rilishidir. Chunki Shoira yurt samosi bag‘rida porlagan sonsiz yulduzlar shodasi, oq teraklar sochida to‘lg‘ongan to‘lin oy va oltinrang bug‘doyzorlar sirli shiviriga qulqoq tutadi. U zumrad bedapoyalar

bag‘rida chug‘urlashgan qushlar nolasi, shamollarga til ko‘rsatib shovullayotgan qamishzordan taralgan musiqiy simfoniya, hatto chigirtkaning o‘lanlari va ko‘lmakka ko‘rk bag‘ishlagan qurbaqalar ovozida ham qandaydir xush ohang tuyadi. Toshlarga taqalarini urib mag‘rur kishnayotgan otlarning har biri unga sadoqatli Boychiborday suyukli.

Bizningcha, aynan o‘sha yurtning har bir zarrasiga bo‘lgan muhabbat Shoira qalbiga betakror poetik ohanglar olib kirgan. Shuning uchun F.Xudoyqulova bitiklarida manzaralangan tabiat va joy tasvirlaridagi milliy ruh lirik qahramon kayfiyat-holatini ochish vositasiga aylangan. Jumladan “Lola sayli” she’ridagi qir bag‘rini qonatgan quyosh nurlari, alvon lolalar va o‘n sakkizga kirmagan qizlar yuzidagi qizillik bir-birini to‘ldirib, ajib uyg‘unlikni yuzaga chiqaradi. Chamanzorda sho‘x-shodon qiyqirib chopayotgan qizlar xuddi lolalarga qo‘silib oqayotgan ulkan dengizni eslatadi. Aslida ham, tasvirdagi qizil “rang” shunchaki kontrast fongina emas, balki inson ruhiyati, qizlarning ayni damdagi holati bilan uyg‘unlik kasb etib, o‘sha lirik holatning vaqt va makoni haqida yorqin tasavvur beradi. Shoira chayqalib turgan dunyoga tinchlik, olamga yasharish, farzandlarga kamol tilarkan:

*Kamolingni istab charxladim qalam,
Urush bo ‘lmasa bas yurtimda, bolam.*

deb yozadi. Bu satrlar bizga beixtiyor tarzda Zulfiyaning:

*Ona qalbi oyoqqa tursa,
O‘g‘lim, sira bo ‘lmaydi urush!*

degan o‘tli xitobasini eslatadi. Zotan, ayni damda urushning zahrini totgan, shahidlari ruhini e’zozlagan ulug‘ elning kuyinchak shoirasi va o‘z farzandlari onasi sifatida Farog‘at Xudoyqulova qalbi ham qirg‘in-qotog‘on olovini yoquvchi kaslarga qarshi oyoqqa turadi. Qolaversa, u mustaqil yurtimiz tinchlikparvar siyosatiga ham hamohang tarzda fikrlaydi. Darhaqiqat, biz qurayotgan mustahkam qo‘rg‘on, kelajak avlodlar taqdiriga mas’ullik hissi Farog‘at opa lirik qahramonini ogohlilik va xushyorlikka da’vat etuvchi ijtimoiy faol shaxsga aylantiradi. Binobarin, u yaratgan grajdanlik poeziyasi mehvarida ma’naviy olamida o‘shanday

fojealarga qarshi kurashchanlik ruhi kamol topgan va o‘zini har lahzada muhorabaga chog‘laydigan lirik qahramon obrazi turadi.

*Shaxd aylasam, qirq erkakcha botirligim,
Faxrim, shonim – qavmingizga doirligim,
Lek bu dardga taskin bermas Shoirligim,
Poklanishga chog‘laning, hur ko‘ngillarim,
Erta xazon bo‘lgan opa-singillarim.*

Umuman, shoira ijodida da’vatkorlik ruhi qabariq tarzda bo‘rtib turadi. Zotan, u bilib-bilmagan holda asr vabosi sanalgan oq ajal, fahsh va zino, odam savdosi, vatanfurushlik singari illatlar qurboni bo‘lib qolayotgan o‘z qavmdoshlari hayotiga nisbatan zinhor befarq qaray olmaydi. Axir, To‘maris singari ko‘ngilga nur va dilga surur bag‘ishlovchi, Oybarchinday jasur, shirin misol suluv, Laylidek sadoqatli, Kumushbibi yanglig‘ xokisor, Zebi kabi samimiya va sodda ayollar ne-ne alp o‘g‘lonlar qalbini o‘g‘irlagan, ertadan umidvor etgan emasmidi. Afsuski, XXI asrga kelib bevaqt xazon bo‘layotgan ayrim yurtdosh xotin-qizlar qismati kishini chuqur o‘ylarga toldirib, ko‘ngilda iztirobli o‘ylar uyg‘ota boshladi. Shu ma’noda, shoira tuygan achinish, nafrat, uyat, mas’ullik hislari ogohlik da’vati bo‘lib yangraydi.

Kezi kelganda ta’kidlash o‘rinligi, kitobning saravhasiga chiqarilgan “Oq xatlar” shartlangan, obrazli poetik atamadir. Zotan, odatda maktub yozilar ekan, oq qog‘oz qoralanadi. Oq rangli maktub, ya’ni samimiya, beg‘araz tuyg‘ular izhorida butun mas’uliyat zalvorini zimmasiga olishdan cho‘chimay, o‘z-o‘zini taftish etaroq, taqdir hukmiga rizo bo‘lgan javobsiz sevgi qurboni – hijronzada lirik qahramon (ma’shuqa) ning nolakor anduh, armonli isyon va tizginsiz sog‘inch tuyg‘ulari akslangan. Aslida kimgadir jo‘natilgan moddiy ma’nodagi maktub mavjud bo‘lmasa-da, shoira badiiy hislarining ongdagi jilvasi fikrga ko‘chgani bois, samimiya dil izhorlari orqali biz uni makon va zamonda mavjud narsa singari his etamiz, tasavvur qilamiz. Binobarin, individuallashtirilgan umumlashma orqali qalamkashning ayni she’r yozilayotgan paytdagi ma’naviy-ruhiy dunyosiga ham

kirib boramiz. Ayni paytda, konkret jonli inson hamda unga xos kechinmalar bilan tanishamiz va hamdardlik tuyamiz. Biri ikkinchisining ziddi bo‘lgan individuallik va umumiylilik, fikr hamda tuyg‘uning she’riy matnda yagona fokusga uyg‘unlashuvi ratsionallik va emotSIONALLIKNI yuzaga chiqaradi. Chunki shoira ruhiyatini larzaga keltirgan va badiiy idrok etilgan muhabbat va hijron, inson va qismat azaliy muammosi anglangan haqiqat – tugal badiiy kontseptual fikr-xulosa, hissiy munosabat sifatida ifodaga ko‘chgan. Boshqacharoq aytganda, hissiy tonallik shoira ijodiy niyatidan ibtidolangan.

Ketdim,

Bilmasam-da borar yerimni.

Men sevib yurakni oldirdim.

Ixtiyoriy ixtiyorsizlik – ko‘ngil istagi yetovida manzil-makonsizlik sahrosiga bosh olib ketgan lirik qahramon qalbi kengliklar sog‘inadi. Chunki baland insoniy tuyg‘ulariga munosib javob topolmay o‘rtangan oshiq ko‘ngilning tor hujraga sig‘mog‘i mahol. Garchand hali ahdu qarorning asl simptomlari to‘la anglab yetilmasa-da, oyoqlari uni sohir tabiat qo‘yniga yetaklaydi. Zotan, inson shu manzil-ma’vodagina o‘zini ruhan erkin sezadi. U muazzam tabiatdan ajralmas bir zarra, mukammal birlik ekanini his etadi. Bu hol ko‘ngliga taskin, tafakkuriga yupanch baxshida etib, g‘am-anduhlarini aritadi. Shukronalik va taslimiyat sari boshlaydi. Shu bois, hozirgina tutday to‘kilay deb turgan dil g‘uborlardan poklanadi va uni mislsiz sog‘inch tuyg‘ulari chulg‘aydi. Javobsiz sevgining yolg‘iz qurboni ekanini anglagani uchun muhibiga nisbatan zarracha nafrat tuymaydi. Aksincha, uni ko‘ngil ardog‘ida asraydi:

Atirgul suviga cho ‘milib uxlang,

Bo ‘g‘masin o‘n besh yil oldingi qasam.

Oq tunlar oshiqsin huzuringizga,

Hijron degan uyur oq otlar borsin.

Anglashiladiki, taqdirga rizo bu inson o‘z yoridan jisman ayro tushgan bo‘lishiga qaramasdan, ruhan aslo yolg‘iz emas. Inchunin, jismoniy judolik ma’shuqa ko‘ngil samosi beg‘uborligiga mutlaqo daxl qilolmaydi. U o‘zini

sadoqatli mahbublarnig ulug‘ safida tuygani, unitilishni istamagani uchun: “Gul bog‘ich bog‘langan oq xatlar” yo‘llashdan malollanmaydi. Aksincha, har lahzada bunga qurb va jur’at topa oladi. Chunki suyukli yor haqidagi shirin xayolning o‘ziyoq uning hayotiga zeb berish, so‘nmagan umidlarini cho‘g‘lantirishga qodir. Demak, lirik qahramon o‘z xayoliy maktublaridagi go‘zal, bokira hislari bilan yorini ta’qib etishdan ma’naviy lazzat tuyadi. Aqli unga yo‘llar ayro tushgani, uchrashish mutlaqo imkonsiz ekanini har qancha uqtirmasin, tuyg‘ulari bunga ko‘nishni istamay, o‘jarlik bilan gullar saralayveradi. Toki yorning unutolmay o‘rtanishlari o‘zga mahbuba (raqiba) yo‘lini to‘ssin. Illo, ma’shuqa uchun “o‘zga” (raqiba) mavjud emasligi haqidagi “oshiq” ning iqrorini eshitmay jon taslim qilish mutlaqo imkonsiz. Shuning uchun ham oq xatlarda umr yo‘llarini taftish etuvchi shoda-shoda savollar charx uradi:

*Sochlarning bo‘yini shamollar ko‘rdi,
Ko‘ngilning tubini xayolar ko‘rdi,
Umrning shavqini zavollar ko‘rdi,
Nega biz ko‘rmadik, nega, azizim?*

*Bog‘larda qishni yoz ovutib o‘tdi,
Tog‘larda oyni soysovutib o‘tdi,
Yurakdan sevgimiz tobuti o‘tdi,
Nega biz sezmadik, nega, azizim?..*

Darhaqiqat, bir paytlar ulkan va’dalar bergen yor ma’shuqa tasavvurida botir va bahodir juft edi. Undan kutilgan mehr-e’tibor, vafo-sadoqat sarob bo‘lib chiqdi. Endi bu dilxasta ayol shavqsiz va zavolli o‘tgan fursatlariga achinadi. Ko‘rib ko‘rmaslik, sezib sezmaslik tuyg‘usidan zada bo‘ladi. Chunki umri shamollarga sovrilib, gulday yoshligi xayol va armonga do‘ndi. Go‘zal orzulari gullamay xazon bo‘ldi. Binobarin, mahbuba o‘zi aziz deb bilgan kishisidan javob so‘rash, bergen qurbanligiga yarashig‘liq xun talab qilmoqqa to‘la haqlidir. Ha, o‘n besh yil davomida yurakda yig‘ilib borgan alamlı dog‘lar bir kun kelib isyonkor vulqon yanglig‘ otolib chiqmog‘i tayin.

Kuzatganimizdek, shoira poetik timsollar asosida fikrlaydi va nigohini voqeahodisa mehvariga qaratadi. U qo'llagan badiiy obrazlarga xos metaforiklik va assotsiativlik inson ruhiyati manzaralarining mohiyatini vositali tarzda ochish imkonini beradi. Jumladan, shamollar olib ketgan sochlarning bo'yi, xayoliy teranlikda anglanishi mumkin bo'lgan ko'ngil talpinishlari zavol topgan umr mazmunini his etish, bog'-tug', qish-yoz, oy-soy singari bir-biriga u qadar yaqin bo'limgan narsa-hodisalarni o'zaro uyg'unlashtiruvchi mushtaraklik zamiridagi oqibat tuyg'usi insoniy munosabatlardagi yo'qotishlarni miqyosli tarzda anglatadi. Takrorlanib keluvchi o'rtaguvchi savollar esa, fofia mazmunini yanada chuqurlashtiradi. Bir mohiyatning ikkinchi bir detalb, ya'ni ramziy obraz orqali olib berilishi (assotsiativlik) she'riy satrlar kitobxon Shuuridan chuqur joy olishiga yo'l ochadi, uning ijodiy tasavvur dunyosini kengaytiradi.

Muhimi, ishq azobi jonni o'rtashiyu kutganlari sarob bo'lib chiqqaniga qaramay, ko'ksida o'sib borayotgan zalvorli qayg'u tog'inining yuki ostida lirk qahramon qaddi egilmaydi. E'tiborsizlik atalmish mislsiz baxtsizlikka ro'baro' bo'lgan ma'shuqa o'zi tashlab chiqqan g'arib kulbada qolgan gunohkor bandadan ko'ngil uzolmaydi. Chunki, yorug' olamda zarracha og'rinmay nozik ko'nglini ishonib topshira olgan o'sha kimsa borligining o'ziyoq unga ulkan baxt, tansiq ne'mat bo'lib tuyuladi. Biroq tuyg'ular qorishiqligi shundaki, armonli dunyoning xiyonat atalmish go'shsida aldangan bu mukarram zot ba'zan ikkilanishlar girdobida qolarkan:

Umrimni osmonga, qushlarga berib,

Maysalar, toshlarni sevsam bo'larkan!

qabilida afsus va nadomat chekadi. Zotan, yo'qotilgan vaqt va erishilmagan orzular kishida iztirob tuyg'usini uyg'otishi tabiiy. Shunday kezlarda fidokor bo'lishga intilgan, xayolday tiniq va oyday yorug' orzularidan kecholmagan, hanuz o'z ahdida sobit ma'shuqa kechinmalari dildan tilga ko'chsa ne ajab:

Payt kelmadi poying ko'zga surgali,

Ko'shkingda oy birlan xayol surgali

Payt kelmadi sadoqatdin toj kiyib,

Husning davlatida davron surgali.

F.Xudoyqulova lirik qahramoni o‘z muhabbatiga erishmagan jonsiz ma’buda emas. Bu ko‘ngil odamining o‘z olami, behudud hurlik diyori bor:

*Ay dunyo, hur-hur dunyo,
Farog ‘atim olding sen.
Ajab qildim, men sevib,
Ortda yolg‘iz qolding sen...
Ay dunyo,
Tutqun dunyo...*

Ko‘rinadiki, lirik qahramon muqim bo‘lgan dunyo shunday muhtasham manzilki, qo‘l yetmas yuksak ma’vodagi bu yurtda mudroq dillarni uyg‘otishga qodir kuchli dovullar esib, o‘tli chaqmoqlar chaqnaydi. Bulutlarning sochida arg‘imchoq uchib, tovus misol tovlanuvchi, kipriklarida nur jilvalangan bir suluv qiz esa eshib, eshilib chanqovuz chaladi. Sibizg‘aning nolakor ohanglari orzulardan binafsharang chimildiq tikkan go‘zalning firoq o‘tida o‘rtanishlaridan roz aytadi. Unga dil quloqlarimizni tutarkanmiz, moddiy dunyo aldovlari va xiyonat sahrosida adashgan parivash osoyishta manzil axtarib, o‘z ko‘nglidagi hududsizlikdan farog‘at topganini his etamiz. Demak, uning lirik qahramoni ko‘ngliga umidsizlik mutlaqo begonadir.

Shoira oniy tuyg‘ularini so‘z vositasida moddiylashtirish asnosida, ona Vatan surati hamda zamondoshlarimiz ruhiyatidagi evrilishlarni sohir tabiat manzaralariga xos jilvakor rang va ohanglar, qadim yurt sadolari, mustaqil diyormizda kechayotgan yaratish, yashnatish, bunyodkorlik jarayonlari bilan hamohanglikda tasvirlaydi. Qalbidagi o‘tli hayajonu hayratlar, qaynoq ehtiroslar, yuragidagi sarbaland maqsadlar bilan chambarchas bog‘liq shiddatli qaynashlarni lirik misralarga tizadi, donishona hukm-xulosalar chiqaradi.

Zotan, Farg‘at opaning yurak qafasi o‘tli qaynashlar, po‘rtanavor to‘lg‘onishlarga torlik qilib qolganida, so‘z jilovi qo‘ldan chiqib qog‘oz sari oshiqadi. Goh og‘riqli azoblar va teran hamdardlik, gohida mehr-muhabbat hamda sog‘inchu armon hislari bilan to‘lgan ko‘ngilning aks sadolari bo‘lib yangraydi.

Muhimi, ularning bari yagona nuqtada uyg‘unlashadi. Natijada, she’riyat atalmish qutlug‘ amalning qudrati, poeziya o‘zini mas’ul deb bilgan burchdorlik hissi yorqin namoyon bo‘ladi.

So‘nggi yigirma yil ichidagi adabiy jarayonga nazar tashlar ekanmiz, adabiyotimizning hech qaysi bir bosqichi deyarli barcha masalalarda bu davrdagidek rang – barang , seruslub , sertarmoq , sermahsul , serjilva vahatto ba’zan ayrim kutilmagan , hayrotomuz hodisalarga boy bo‘lmaganini ko‘ramiz . Hozirgi o’zbek she’riyati namunalarini tahlil qilib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- mustaqillik davri o’zbek she’riyati timsolida sirli-sehrli va rang-barang inson olamini shoir yoki lirk qahramon qanday anglayotganligini tasvirlashdan betakror inson dunyosining turfa holatlarini o‘z idrokleri-yu his-tuyg‘ulariga tayanib, ko‘ngillariga o‘zлari yo‘l topishlariga undash, insonni anglashga intilishdan uning qalbini o‘ziga anglatish tomon qadam tashlanganligini ko‘rsatuvchi yo‘nalish paydo bo‘lganligidan dalolat beradi. Bu shoira Zulfiya Mo‘minovaning quyidagi she’rida ham ko‘zga tashlanadi:

*Ostonamda yig ‘layotir kuz,
Ostonamda gangiydi shamol.
Ostonamdan olislagan iz –
Ostonamda og ‘ir bir savol.*

*Men barini tushundim nogoh,
Xazonlarni gazga bosib jim.
Ostonamda men qilgan gunoh -
Yolvorishni bilmaganligim.*

«Ostona» so‘zining takror va takror qo‘llanishi yangi ma’no tovlanishlariga ishora: yolg‘izlikda kechirilgan umrning so‘nggi «ostonasi» - kuz yig‘lamoqda. Nega? Nima uchun? Shamol ham umrning «so‘nggi ostonasi»gacha bu yolg‘izlik, tark etilganlikning ma’nosini anglamay, umrini boshqa, begona eshiklar ostonasida

o'tkazgan inson hayotining adog'i – ma'nisiz hayotning «so'nggi ostonasi» oldida inson qismatidan gangigan holatda...» Hatto shamolning ham «uloqtirib», «uchirib», «ko'tarib, tashlashga» bu ostonadan (ya'ni makondan, uydan) hech nima topolmay, hayron holatda uni tark etayotganligi hayajonli va ta'sirchan tarzda tasvirlangan. Bu ostonadan bosh olib ketgan, olislagan «iz» qoldirgan «og'ir savol» ham hanuz javobsiz... Yolg'izlikda umr kechirgan «lirk qahramon»ning xazonrezgi pallasidagi umr daraxtining qovjiragan xazonlarini yuziga bosib, o'z gunohlarining ma'no mohiyatini tushungan holati quyidagicha tasvirlanadi:

«Ostonamda men qilgan gunoh - Yolvorishni bilmaganligim» - deydi. Xo'sh, yalinib-yolvorish nimaligini bilmagan lirk qahramonning «gunohi» nimada? Axir yetuk shaxslar hamisha mag'rur bo'lishgan, yolvorish binobarin, bosh eguvchanlik ular uchun yot xususiyat bo'lган. Bobur Mirzo, Mirzo Ulug'bek shaxsiyatiga xos yetuklik alomatlari ham ayni shu jihatdan izohlanadi-ku?

Gap shundaki, she'rda shoira kibrga berilish, «man-manlik» natijasida o'zi va o'zgalar dardidan, tuyg'ularidan, samimiyatdan yiroqlashgan inson qismatini lakonistik syujet yaratish orqali ta'sirchan manzaralarda tasvirlamoqda. «Ostona» - makon ma'nosida xilma-xil ma'nolarni ifoda qilgan. Ostona – uy, xonodon ostonasi ma'nosida; Ostona - (umrning so'nggi pallasi ma'nosida) – bu o'tkinchi dunyoning oxiri, haqiqiy dunyoga o'tish ostonasi ma'nosida; ostona - (ko'ngil ostonasi nazarda tutilgan) qahramonning bo'm-bo'sh ko'nglining ostonasi ma'nosida; Ostonam – men muqaddas deb bilgan e'tiqod va aqidalar manzili, ostonasi ma'nosida. Lirk qahramon o'zini «buyuk» deb hisoblagan shu bois «buyuklar» hech kimga bosh egmaydi, hech qachon yalinmaydi va yolvormaydi, – degan aqidaga ishonib yashagan.

Ammo, «buyuklik» va «yagonalik» faqat Ollohga xos sifatki, bandasining gunohi buni chuqur anglab yetmaganligidadir. Mazkur badiiy-falsafiy umumlashmalarni shoira «ostona» so'zining serqatlam ma'no tovlanishlarini badiiy ifoda vositalariga mohirona «payvandlash» orqali badiiy kashf etgan.

-O'zbek shoirlarining o'zbek klassik she'riyati va xalq og'zaki ijodiga xos an'analarni davom etdirib, poetik nutq xususiyatlaridan mohirona foydalanib,

ijtimoiy-falsafiy ma’no tashuvchi badiiy umumlashmalarni yaratishga intilishlarida ko‘rinadi:

*Charx avzoyi bu dam avvalg ‘ilarg ‘a o ‘xshamas,
Kotib-u davr-u raqam, avvalg ‘ilarg ‘a o ‘xshamas,
Endi inson qadri ham, avvalg ‘ilarg ‘a o ‘xshamas,
Ko ‘nglum ichra dard-u g ‘am avvalg ‘ilarg ‘a o ‘xshamas,
Kim, ul oyning hajri ham, avvalg ‘ilarg ‘a o ‘xshamas.*

Omon Matjon qalamiga mansub ushbu she’r Navoiy g‘azaliga muxammas tarzida bitilgan bo‘lib, klassik adabiyot an’analarini davom ettirishning yorqin namunasi hisoblanadi.

- Shoirlar favqulodda yaratilgan ifodalar orqali ramziy obrazlarni kitobxon ko‘z o‘ngida jonlantirishga erishib, poetik g‘oyani to‘laqonli anglatishga muvaffaq bo‘layotirlarki, bu xususiyat hozirgi o‘zbek she’riyatiga xos tendentsiya sifatida o‘rganilishi lozim. Ranglarni ramzlashtirish hozirgi o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos an’ana tarzida davom etmoqda, badiiy-estetik tamoyil sifatida yashamoqda; Abdulla Oripovning «Bilol xabash» she’rida qora rang obrazning ruhiyatini yoritib turgan e’tiqod nuriga uyg‘unlashib oqlikka ko‘milsa, Shavkat Rahmon, Azim Suyun, Usmon Azim she’rlarida uchrovchi oq rang beg‘uborlik, samimiylilik, yorug‘lik, ezgulik ma’nolarini ifoda etadi. Shavkat Rahmon yozadi:

*Sendan-da ulug‘roq narsa yo ‘qligin,
Sochim oqarganda angladim Vatan!*

Istiqlol davri o‘zbek she’riyatida an’anaviy tasvir uslubi vositasida tabiat guzallagini poetik gavdalantirish, tabiiy ranglarni suvratlantirish Azim Suyun ijodidan aloxida tarovat bilan xis kilinadi.

Azim Suyun ash’orlarining o‘ziga xosligi ularga singishgan xalqona ohangdan, Nurota tog‘lari bag‘ridagi yurt go‘zalligi mujassam poetik chizgilardan, chashmaday buloqlar qaynashiga monand ehtiroslilik, tog‘ shalolasiday mayin tuyg‘ular haroratidan his qilinadi. Ko‘z o‘ngimizda lojuvard ufq, shovullayotgan “She’r yolli” chinorlar, oy yog‘dusida jilvalangan “zar chashma” yorishib

borayotgan tog‘lar darasi, cheksiz kengliklar namoyon bo‘ladi. Lirik qahramon kechinmalariga kechinmadoshga aylanamiz.

*Lojuvard ufqda mening uyim bor,
Bir uyki, o ‘ylarim oydin, sarasi.
Shu ufq tagida mening uyim bor,
Nurota tog‘larin u yer orasi.
Uning osmonida burgut qanotin,
Shiddati havoni qalqitar tinmay.
Cheksiz kengliklarga bo‘z muhabbatin
Cho ‘pon tili bilan izhor etar nay.
Olmos qoyalarda olmos nur o‘ynar,
Cho ‘qqilar uzra, huv, jayron bolasi.
Buloqlar boshida kakliklar kuylar,
Sozlarin bastalar tog‘ shalolasি.*

Lirik qahramon “qirqim-qirqim qirlarga”, “gullarga to‘lgan” qadrdon dalalarga, “mayin maysalarga” boqib, o‘xshashi yo‘q shu diyorgagina hos isni tuyadi, “yig‘lab-kulib, ezib” bag‘riga bosadi.

Durkun-durkun qirlarning “sochlarini taraydi”. “Maysalar sog‘inchi”, “Tog‘ o‘rmoni”, “Tog‘ qo‘shig‘i” she’rlaridagi tasvir viqorli tog‘larni, uning osmonida uchgan burgutlarni, cho‘qqilar uzra suzgan par bulutlarni gavdalantiradi. Har bir obraz, ramz, ko‘chim ma’nolari inson hayoti, umri, izlanish-intilishlari, kurash-u mag‘lubiyatlarini ifoda qiladi. Ba’zan lirik qahramon olam sirlarini kashf etishga qodir inson borlig‘i hanuz sirligicha qolganligidan hayratga tushadi:

*Yo ‘limiz oyga yetdi,
Yolg‘on aytib netay.
Hamon goh kuyib-yonib,
O‘zni halok etamiz!*

*Barhanlarga inonib!
Nahotki bu dunyo sir?
Nahotki bani-bashar
Doim aldanib yashar?*

Yoki:

*Tun qop-qora, tun qop-qora,
Yomg‘irlar yog‘ar qop-qora,
Bu qop-qora tunlarning, oh,
Tonglari oq, oh, bir qara...*

She’rda qo‘llanilgan rang-ramz-“qora tun”da yog‘gan yomg‘irlarning ham qop qoraligi qanday ma’noni anglatadi? Agar she’r yozilgan davr – 1985 yilda ro‘y bergen voqealarni eslasak, yurtimiz osmonida suzgan “qora bulutlar”, xalqimiz sha’niga to‘qib-bichilgan bo‘htonlar, “o‘zbek ishi” oqibatida qaddi bukilgan vatandoshlarimiz qismati o‘sha “qora kunlar” dahshatini yodga soladi. Xalqimizning achchiq ko‘z yoshlariga qiyoslanuvchi “qop-qora yomg‘irlar” o‘sha fojealarni eslatadi, “oq tonglarga” umid uyg‘otadi.

Shoirning falsafiylikka yo‘g‘rilgan “Bir kosa suv”, “Navoiy o‘giti”, “Istig‘for”, “Bu mag‘rur boshimni xam etmak uchun” kabi bitiklari poklanishga mayl uyg‘otadi, imonda sobitlikka undaydi.

*Goho imonim sotdim
Nafs deya toshday qotdim,
Uchar qushga o‘q otdim
Istig‘for, istig‘for.*

Azim Suyun ijodining asosiy qismini vatanga mehr, uning dardlariga dardkashlik, ona zaminimizning buguni va ertasi haqida qayg‘urish tuyg‘ulari ifoda qilingan “O‘zbekiston”, “Vatan”, “O‘zbegim” singari she’rlari tashkil qiladi. Ushbu she’rlardan buyuk tuyg‘u his qilinadi: vatanni sevish, ardoqlash, vatan oldidagi burch mas’uliyatini tuyish.

Nozik qalb tebranishlari badiiy ifodasini topgan “Oy goh to‘lin, goho yarimta...”, “Sharqiragan soyda”, “Quyosh afsonasi” kabi she’rlari orqali shoir ruhiyatini his qilamiz. Katta qalb egasi – shoir obrazi hamisha ezgulikka, tabiiylikka, tabiatga talpinadi. Tabiat quchog‘idan sokinlik, osudalik, go‘zallik topadi. Shu bois Azim Suyun ijodi kitobxонни ham tabiiylikka chorlaydi.

Halima Xudoyberdieva she’rlarida oq rang bilan yondosh sariq va qizil ranglar uchraydi:

*Goho bo ‘m-bo ‘sh ko ‘nglim oralab,
Sudraladi kuzak shamoli.
Sarg‘aygan gul yaproqlariga,
Dilim chizar ishqning xayolin.*

Shoira judolik, ayriliq, tushkunlik, aldanish holatlarini sariq ranglar vositasida jonlantirsa, qizil rang orqali yovuzlik, fojiaviylik, zo‘ravonlik, istibdod ramzlarini yaratgan. Eshqobil Shukurning «Yashil o‘lim» she’rida asosiy badiiy unsur-ramziy obraz orqali ifoda etilgan. Shoir Bahrom Ro‘zimuhammad ijodida ham ranglarning ramziy qo‘llanish usili o‘ziga xos poetik timsollar yaratishga xizmat qilganligini kuzatish mumkin.

Sirojiddin Sayyidning “Ko‘ngil sohili” (Shamnama) turkum she’rlari ichida quyidagi to‘rtlik bor:

*Yashil ro ‘molingda – yashil kunlarim,
Qizil ro ‘molingda – qizil tunlarim,
Shomu tonglarimday oq ro ‘mollarini,
Qolgan barcha dunyo – yolg‘on unlarim. (205-bet)*

Shoir “yashil ro‘mol” – “yashil kunlar” tashbehi orqali yoshlik yillariga ishora qilsa, “qizil ro‘mol” va “qizil tunlar” sifat+ot birikmasidan tashkil topgan ramzlar vositasida ma’rifat, haqiqat izlab kechgan damlarini, o‘zligini tanishdan, ilm-ma’rifat yo‘lidan keyingi Haqni tanish jarayonlarida kechirgan umriga ishora qilmoqda. Tasavvuf ta’limotiga xos “ma’rifat” yo‘lidan – qizil rangdan “haqiqat yo‘li” – oqlikka tomon intilish jarayonlariga xos ruhiy bedorlikka – “qizil tunlar”ga urg‘u berib, ta’sirchanlikni ta’minlashga erishgan.

An'anaga ko'ra, she'riyatda oq rang ezgulik, poklik, yaxshilik, beg'uborlik, yorug'lik timsoli hisoblansa, qora rang baxtsizlik, o'lim, yovuzlik kabi ma'nolarni ifodalashi bilan birga kuch-qudrat, buyuklik kabi ma'nolarga ham ega. Lekin rangdagi bu ma'nolar turg'un emas. Ular turli davr va shoir estetik maqsadiga ko'ra farqlanishi mumkin.

Shoir Sirojiddin Sayyid she'rlarida ham oq rang an'anaviy tarzda ezgulik, yorug'lik, sakmimiylilik kabi ma'nolarni beradi. Va bu ma'nolar Shoir dunyoqarashida tajassum topgan hayot manzaralarini chizishda o'z ko'lamin kengaytiradi.

*Ohlarim ichinda ungan oq gulim
Necha yil yashadim men mushtoq, gulim.
Gohi karashmaga to 'lug ' daryosan,
Goh oppoq bahorday bir quchoq, gulim...*

Yoki:

*Ufqlar, qirlaru osmongacha qor
Toshkantdan Termizu Surxongacha qor.
Ona, bu sog 'inchni qandoq yozayin,
O 'rtamizda cheksiz oppoq varaq bor.*

Ustoz Abdulla Qahhor "Poeziya – yuksak san'at" maqolasida yozganidek, "She'rning mo'jizalik sirlaridan voqif bo'lish, bu sirlarni jilovlash har kimga ham muyassar bo'lavermaydi. Bunga erishish uchun zehn, sabr va mehnatdan boshqa yana nimadir kerak"¹¹. O'sha "kerak nimadir", nazarimizda ilohiy ne'mat – badiiy kashf etish salohiyatidir. Demak, o'zbek she'riyatida rang bilan bog'liq ramziy obrazlarni shartli ravishda quyidagicha turkumlash mumkin:

Insoniy sevgi-muhabbat mavzuidagi ramzlar.

Insoniy fazilatlarni ulug'lashga, mehr-oqibat, ezgulikni qadrlashga undash mavzuidagi ramzlar.

Ijtimoiy – siyosiy mavzudagi ramzlar.

¹¹ Каххорова К. Чорак аср ҳамнафас. –Т.: Ёш гвардия, 1987. – Б.26.

- o'zbek she'riyatida islom asotirlari va g'oyalari bilan sug'orilgan she'rlar paydo bo'ldi. Professor Hakimjon Karimov "Bu she'rlar «Qur'on» surasidagi oyatlarda va hadislardagi kishini to'g'ri yo'lga solishga irshod qilingan fikrlar asosida yozilgani uchun kishi imonini mustahkamlashga juda qo'l kelyapti. Chunki imoni mustahkam odam har qanday yomonlikdan va insoniy illatlardan saqlanadi, hech kimga zulm qilmaydi"-deb ta'kidlaydi . Bugungi o'zbek she'riyatiga xos shakliy va uslubiy izlanishlar ayolga xos yoniq, bezovta ruhiyat manzaralarini she'riy yo'sinda ifoda etayotgan Farida Afro'zning "Tasbeh", "Ushshoq" kabi to'plamlari misolida ham kuzatiladi.

Shoiraning 231 tasbeh va 99 fiqrani o'z ichiga olgan "Tasbeh" to'plamidagi uchlik shaklini olgan she'rlari so'ngi davr she'riyatiga xos yangi hodisa sifatida e'tirof etildi. 33 tasbehning go'yo bir shodaga tizilib, yetti She'riy marjonnini hosil qilishi chindan shakliy ifoda yaratishdagi shoira kashfiyotidir. Muallif qisqa uchliklar zamiriga serqatlam, salmoqli poetik ma'nolarni singdirib, inson ko'nglini poklashga undovchi misralarni tasbeh donalari kabt tizib chiqadi. Bu misralar tag ma'noli, falsafiy fikrlarni ifoda etadi. Odamlarni qalban poklanishga chorlaydi.

Olloh mulkida hech narsa sotilmaydi.

Sotguvchi ham – o 'zi,

Olguvchi ham – o 'zi. ¹²

Dunyoni bozorga o 'xshatadilar.

Dunyoni har nega mengzash mumkin.

Masalan, o 'rgimchak to 'riga".

Ushbu uchliklar orqali shoira insonni ma'naviy poklanishga undaydi. Dunyoni sotish va sotib olish mumkin, -deb o'ylovchi odamlarni o'rgimchak to'riga tushgan ojiz holatda tasavvur etamiz.

To'plamdagagi tasbehlarda qofiya, turoq, vazn kabi shakl unsurlari qat'iy yo aniq emas. Har uch misrada ifoda etilgan falsafiy fikr muayyan ohangni hosil qilgan. Shu ohang she'r misralarini mantiqan bog'lab turadi. Avvalgi misrada ifoda etilgan falsafiy fikr keyingi ikki misrada izohlanadi:

¹² Фарида Афруз. Тасбех. (Учниклар). Т.: Шарқ.-2007.(Кўчирмалар шу нашрдан олинди.)

*Soyga tushdi tilla uzugim,
Suv oqdi karvon-karvon.
Bir nahang yutib ketdi.*

Ayrim uchliklar esa lirik qahramon ruhiyatini, ko‘ngil armonlarini misrama-misra ichki mantiqiy bog‘liqlikda ifoda etadi:

*Yuragimga qadalar qoya,
Osmon pastlik qilmoqda Sensiz,
Oyoqlarim yerga tegmaydi.*

Ifoda ta’sirchan, favqulotda holat, ya’ni “yurakka qoyaning qadalishi”, “osmonning pastlik qilishi”, “oyoqlarning yerga tegmasligi” talqini kitobxonga lirik qahramon kechinmalarini his qildiradi. Hayot ziddiyatlarining inson ko‘nglida yasagan to‘ntarishlarini tasavvur etish imkonini beradi.

*Ular birga yashaydilar to ‘q.
Sizlaydilar bir-birlarini.
Har nesi bor sevgidan boshqa.*

To‘kis hayot, chiroli munosabatlар ortи bo‘shliqdan iborat bo‘lsa, “sevgidan boshqa har nesi borligi”ning qanday qimmati, zarurati bor? Ayni quyma hukm-xulosalar to‘plamdagи “fiqra”larda ham davom etadi.

Fiqra – adabiy-badiiy asardan olingan hikmatli fikr, go‘zal parcha tarzida tushuniladi. Farida Afro‘z firqalariga jo bo‘lgan hikmatlar go‘zal ifodalarda taqdim etilgagi uchun ta’sirchan. Kitobxon shoira o‘ylari, hayotiy xulosalari zamiridagi falsafiy ma’nolarni anglar ekan, bu tuyg‘ular uning ko‘ngli orqali kechirilganligini his qilib turadi. Mana bir misol: “Odamzot nega shunday yaralgan-a? Nega shunchalar tashna? Hayhot, hatto o‘zini-o‘zi ezib suvini ichadi-ya!”

Farida Afro‘z she’rlari ko‘ngil nolalari, ko‘ngildan to‘kilgan satrlar go‘yo. Uning “Ushshoq” to‘plamidagi she’rlari ham oshiqlik iztiroblari, oshiq ko‘ngil izhori, oshiqning yo‘qotganlari va topganlari...

*Yomg ‘ir mening
sog ‘inch yoshlarim.
Tinay desam,*

chaqnar chaqin.
Go ‘yo osmon
bo ‘lar chilparchin”...
“Qalbimga bir daraxt ekdingiz,
Daraxtki, bahorni qo ‘msagan.
Uningsiz qushlari bo ‘zlagan-
Bir daraxt ekdingiz...

Shoira she’rlari yolqinli tuyg‘ularga, jozib hislarga boy. Ruhiyat manzaralarining rangin suratlari bugungi she’riyatimizda samimiy tuyg‘ular ifodasi o‘ziga xos shakl va uslubda taqdim etilayotganidan darak beradi.

Modern yo‘nalishidagi she’rlar ijodkoru kitobxonning XXI asrdagi tabiiy ma’naviy-ruhiy ehtiyojlariga monand yuzaga keldi. Ulug‘bek Hamdam qalamiga mansub quyidagi she’r ham modern she’riyatining namunasidir:

San ’at o ‘yin deding
Faqat o ‘yinmas
Kulayotgan kishining achchiq ko ‘zyoshiyu,
O ‘layotgan kishining tabbasumiday
Sirlidir san ’atning yuragi bilsang.

Hijo, tuyuq va qofiyadan uzoq xalq jonli tiliga yaqin sarbast she’rlarni bir o‘qishda tushunish qiyin, ammo har bir so‘z, har bir satr muayyan obrazli ifodaga, ramziy ma’noga va ichki ohangga egaki, bu xususiyatlar shoir mahorati orqali betakror poetik manzaralar va badiiy umumlashmalar yaratilishiga asos bo‘lgan.

Taniqli munaqqid va olim A.Rasulov esa so‘nggi yillar o‘zbek poeziyasining biz tahlil qilgan tamoyillari haqida so‘z yuritib,- ” Abdulla Oripovning «Bir qarasam» she’rida o‘zini-o‘zi anglash, ruhiy holat, ichki kurash aks etadiki, u asarning umriboqiyligini ta’milagan...

Rauf Parfi, Abduvali Qutbiddin, Faxriyor singari shoirlar asarlarida tarixiy nomlar, asarlar, diniy tariqatlarga ishoralar borki, ularni o‘zlashtirish uchun ma’lum tayyorgarlik bosqichini o‘tash joiz». Faxriyorning “Kechinma” she’rini o‘qib ,yuqoridagi fikrlar haqiqat ekaniga amin bo‘lamiz:

*Kim o 'ylab topgan ekan bu so 'zni,
Idishga o 'xhash bir so 'z
Nimani joylasang joylashaverar
Bemor ishtahasiday,
Nozik emas so 'zning ta 'bi u qadar.*

Ayni fikrni bugungi o'zbek she'riyatining «modern» yo'nalishida ijod qilayotgan barcha shoirlar asarlariga tadbiq etish mumkin, deb o'ylaymiz. Hozirgi adabiyotshunoslikda shoirlarni ularning voqelikni anglash va tasvirlash tamoyillariga ko'ra shartli ravishda an'anaviy va zamonaviy (modernistik) yo'nalishga mansub, deb qarash kuchayib bormoqda. Agar Baxrom Ruzimuxammad modern yunalishidagi shoir sifatida e'tirof kilinayotgan bulsa, Sirojiddin Sayyid an'anaviy uslubdagi ijodkor sifatida e'tirof etilmoqda. Muhimi shundaki, ijodkor mahorati uning qaysi yo'nalishga mansubligi bilan emas, balki asarlarining g'oyaviy-badiiy yuksakligi va xalqchil pafosi bilan belgilanadi. Ikkinchidan, har ikkala yo'nalish vakillari ham metaforizmdan foydalanishadiki, bu hol badiiy ijod tabiatini bilan bog'liq holatdir. Lekin asosiy farq Shundaki, zamonaviylikka moyil shoirlar poetik ma'noni chuqur hissiyot va ruhiy olamning tahlili asosida kupincha "men" orqali ifodalasalar, an'anaviy yo'nalishdagi shoirlar ijodida asosan poetik fikrga urg'u beriladi va majoziy unsurlar uni bo'rttirish va ta'sirchanligini oshirishga qaratiladi. Bu xususiyat Sirojiddin Sayyid she'riyatiga ham xosdir. Shu ma'noda uni falsafiy fikrlar shoiri deyishadi. To'g'ri, Sirojiddin Sayyidning hamma She'rilarida fikr va kechinma uyg'unligi bir xil emas. Bu tabiiy hol. Chunki shoir o'z maqsadiga ko'ra ko'pchilik she'rilarida falsafiy-ma'naviy qarashlar ustuvor bo'lgani sababli ularda kechinma intellektual fikr ifodasiga ko'maklashuvchi vosita vazifasini bajaradi. Falsafiy fikrni poetiklashtirishda majoziy obrazlilikka ko'proq murojaat etadi.

Chunki bunday uslubdagi she'rler kitobxonadan she'rshunoslik ilmini va muayyan adabiy tayyorgarlikni talab etishi aniq. ZOTAN, she'rni har bir kitobxon o'z ko'ngli, his-tuyg'ulari va tafakkur tarziga monand his qilib anglaydi. Lirika bevosita insonning tuyg'ulariga, uning ma'naviy olamiga murojaat qiladi. Shuning

uchun ham poeziya kishilarning ongi va qalbiga juda katta kuch bilan ta'sir qilish imkoniga ega. Lirik asarlarni o'qigan o'quvchilar inson xarakterini, uning ruhiyatidagi sirli harakatlarni farqlashni, o'z hatti-harakatlarini yuksak ma'naviy mezonlar nuqtai nazaridan baholashni o'rganadi. Ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilari poeziya bilan muloqot qilish hamda uning ta'sirida bo'lishga katta ehtiyoj sezishadi. Zero, ayni shu yoshda shaxslik, uning ma'naviy va estetik tasavvurlari faol tarzda shakllanadi.

2.2 Zamonaviy o‘zbek lirikasini o‘rganish usullari

Lirikada biror voqelik yoki ana shu voqelik ta’sirida inson qalbida sodir bo‘lgan hissiy jarayonlar muayyan she’riy tizim va vaznda musiqiylik hamda ohangdorlikka yo‘g‘rilib badiiy gavdalantiriladi, ko‘ngil deb atalmish bepoyon xazinaning siru asrori kashf etiladi. So‘z atalmish qudratli kuchning serqirra va betakror imkonlari lirikada nihoyatda yorqin bo‘y ko‘rsatadi. Badiiy-estetik tafakkur lirik turda yanada jozibador, maftunkor va ta’sirchan mohiyat kasb etadiki, o‘quv tahlilida mazkur masalalarini keng ko‘lamda yoritishga erishish lozim.

Akademik litseylarning III bosqichida A.Oripovning “Munojotni tinglab”, “Ayol”, “Tilla baliqcha”, “Bola edim”, “Birinchi muhabbatim”, “Odamlar”, “”Temir odam”, ”Dorboz”, “Onajon”, ”Men anglab yetgan falsafa”, “Genetika”, “Sen bahorni sog‘inmadingmi”, “Men nechun sevaman O‘zbekistonni” kabi she’rlarini o‘rganish rejalashtirilgan. Akademik litseyning amaldagi “Adabiyot” dasturida ham ushbu she’rlarning aynan qaysi jihatlarini tahlilga tortish ko‘rsatib berilgan: ya’ni tahlilda asosiy e’tibor ushbu she’rlarda “inson ruhiyatining rangli tovlanishlari, inson va zamon munosabatlaridagi murakkab muammolarning liro-falsafiy talqin etilishi” masalasiga qaratiladi. Shu boisdan ham akademik litsey adabiyot dasturi mualliflari talabalarning intellektual salohiyati va yosh xususiyatlarini, she’rning inson badiiy tafakkuri tadrijiga, ma’naviy kamolotiga munosib hissa qo‘sha olish qudratini e’tiborga olgan holda aynan ushbu she’rlarni tanlab, aynan shu yo‘nalishda tahlilga tortishni lozim deb topishgan.

Adabiy ta’limda o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etishga qaratilgan dars namunasi sifatida hamkorlarning har ikkalasiga ham shoir sifatida yaxshi tanish bo‘lgan M.Yusufning shaxsini kashf etish mashg‘ulotini keltirish mumkin. Ayonki, inson Muhammad Yusufni hamkorlarning har ikkalasi ham yaxshi bilmaydi. Bu dars nafaqat o‘quvchi uchun qiziqarli, balki o‘qituvchining o‘zi uchun ham ma’lum yangiliklarni kashf etish imkonini beradi. Uni bilish uchun birgalikda shoir asarlari mohiyatiga kirish

taqozo etiladi.

Muhammad Yusuf ijodidan namunalar akademik litseyning 3- bosqichi uchun yaratilgan “Adabiyot” darsligida berilgan bo‘lib, dasturda ularni o‘rganish uchun ikki soat belgilangan. Darslikda shoirning «Madhiya», “Mehr qolur” she’rlari o‘rin olgan¹³. Ularning dasturiy talqini quyidagicha: “*Mehr qolur*” *She’rida dunyodagi barcha narsalar o’tkinchi, faqat insonlar o’rtasidagi mehr-oqibat, muhabbatginaabadiy ekanligining samimiyat va mahorat bilan kuylanishi.* *Muhammad Yusuf* she’rlarining jozibadorligi, o‘ynoqilagini ta’minlab turgan nozik lirizm, samimiylit va musiqiylik. “*Yurtim, ado bo’lmas armonlaring bor*” *She’ri fidoyi va dardkash farzandning ona yurt tarixiga kuyunchakligi poetik ifodasi ekanligi.* *She’rda tilga olingan siymolarning yurtimiz tarixidagi o’rni*”. “*Biz baxtli bo’lamiz*” she’rida oshiqlik va insonga xos bo’lgan samimiyt tuyg‘ularning tarannum etilishi. Tuyg‘ularni ifodalashda shoir mahorati. Insonlarga xos bo’lgan muhabbat Yaratganning buyuk bir ne’mati ekanligi va uning har kimga ham taqdim etilavermasligi. *She’rdagi baxtli bo’lish hissi va bunga bo’lgan ishonch talqini*”¹⁴.

Har qanday adib asarini o‘rganishdan oldin o‘quvchi uning shaxsi haqida imkon qadar mukammal ma’lumotga ega bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Shunda uning ijodini to‘laroq anglash imkoniyati ortadi. “Adabiyot” dasrliklaridaavval adibning tarjimai holi bilan bog‘liq ma’lumotlar taqdim etilishi ham shundan. 8-sinf darsligida M. Yusuf haqida berilgan hasbi hol ham uning hayotiy faoliyatini ochib berishga qaratilgan. Lekin bu bilan o‘quvchi uning shaxsi haqida mukammal ma’lumotga ega bo‘lolmaydi. Darsda o‘qituvchi tomonidan shoir shaxsi bilan bog‘liq bir qator qo‘sishimcha ma’lumotlarning taqdim etilishi o‘quvchiga uning asarlarini to‘laroq anglash, chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Bunday qo‘sishimcha ma’lumotlar uchun o‘qituvchi «Kiyikso‘qmoqdagi yo‘lovchi» kitobiga murojaat qilishi ham mumkin¹⁵. Milliy tarbiyashunoslikda: “*Millatning*

¹³ Олимов С., Аҳмедов С., Қўчкоров Р. «Адабиёт». 8-синф ўқувчилар учун дарслик-мажмуа. –Т.: Ғафур Гулом номидаги НМИУ, 2006. 310–322-б.

¹⁴ Узвийлаштирилган давлат таълим стандарти ва ўкув дастури. Она тили. Адабиёт. Ўзбек тили. (5–9-синифлар). –Т.: PTM, 2010 йил. 82-бет.

¹⁵ Йўлдошев К., Хусанбоева К., Йўлдошева М. Кийиксўқмоқдаги йўловчи. Монография. – Т.: ЎзМЭ, 2014.

ulug‘lari o‘z shaxsi bilan o‘sib kelayotgan avlod ma’naviyati shakllanishi va rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi” degan qarash mavjud. Yosh avlod ulug‘lar shaxsi ko‘magida o‘z-o‘zini tarbiyalashi uchun ularning shaxsiga xos sifatlarni bilishi, ulardan ta’sirlanishi, hayratlanishi va bahra olishi kerak.

Ulug‘lardagi o‘quvchini hayratga solgan, uni ta’sirlantirgan, havasini uyg‘otgan sifatlar unga asta-sekinlik bilan “yuqa” boshlaydi. Hayrat va havas ta’sirida shoir yoki yozuvchi shaxsidagi o‘quvchi tuyg‘ularini junbushga keltirgan fazilatlar hech qanday tashqi zo‘riqishlarsiz, pand-nasihatlarsiz o‘quvchi shuuridan, ruhiyatidan joy ola boshlaydi. Adiblarning bunday fazilatlarini o‘quvchilarga olib berish adabiyot o‘qituvchisining vazifasi hisoblanadi.

Shoir Muhammad Yusufning shaxsi ham, avvalo, uning asarlarida o‘z ifodasini topgan. O‘qituvchi har qanday muallifning «men»i bilan bog‘liq sifatlarni uning yozganlaridan topa bilishi, adabiy ta’lim uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z topildiqlarini o‘quvchilari bilan bo‘lishmay, ularni o‘quvchilarning o‘zları kashf etishlariga imkon yaratishi uning o‘qituvchilik mahorati namunasidir. Shu ma’noda, avval shoirning shaxsi berkitilgan asarlarini kichik guruhlardagi o‘quvchilarga taqsimlab beriladi:

*Osoyishta o‘tmadi biror kunim,
Talashib, tortishib tolmadim.
Og‘irroq bo‘l inim, siporoq bo‘l inim...
Men o‘z bilganimdan qolmadim.*

*Quvroq bo‘l deyishdi, yolg‘on ham kerak,
Jindex xushomad ham. Qulq solmadim.
Oqni oppoq ko‘rdim, qorani qora,
Men o‘z bilganimdan qolmadim.*

*Ko‘nglim sezar, endi bu yog‘i ayon,
Do‘stlarim... do‘stlarim, baxtli bolaman:*

Yo Toshkentda eng zo ‘r shoir bo ‘laman,

Yo uyimga ketib, ariq bo ‘yida

Yalpizga suyanib o ‘lib qolaman!

“Mehrim qattiq bo ‘ldi”

O‘qitushi va o‘quvchilar hamkorligiga asoslangan bunday darslarda kichik sheriklar shoir shaxsiyatidagi fazilatlarni to‘laroq his qilishlari uchun katta yoshli hamkor o‘z qarashlari-yu xulosalarini o‘quvchilarga uqtirish yo‘lidan bormay, shoirning misralarga tizilgan o‘zligini quyidagi shaklda savol-topshiriqlargaaylantirmog‘i talab etiladi: «Birinchi to‘rtlikka e’tibor qarating: undan shoirning shaxsiga xos qanday sifatlarni ilg‘ash mumkin? “*Og‘irroq bo ‘l inim, siporoq bo ‘l inim...*”, “*Quvroq bo ‘l, yolg‘on ham kerak. Jindex xushomad ham*” degan gaplar kimga tegishli deb o‘ylaysiz? Siz bu fikrga qo‘shilasizmi yoki yo‘qmi? Nega? Nima deb o‘ylaysiz, shoir “...o‘z bilganidan qolma”ganida nimalar nazarda tutilgan? U to‘g‘ri qilganmi, yo‘qmi? Sizning nazaringizda, uning o‘zi bilganlari nimalardan iborat bo‘lishi mumkin? She’rdagi «*Oqni oppoq ko ‘rdim, qorani qora*» satrlarini qanday tushinish mumkin? Bu, sizningcha fazilatmi yoki illatmi? “*Ko ‘nglim sezar, endi bu yog ‘i ayon*” deganda Shoir nima demoqchi deb o‘ylaysiz? Shu misralar zamirida Shoir shaxsiga xos bo‘lgan qanday sifatlarni ilg‘adingiz? O‘zingizni u bilan taqqoslang. Ayting-chi, Muhammad Yusuf o‘zi aytmoqchi: “*Toshkentda eng zo ‘r shoir*” bo‘loldimi, yo‘qmi? Buni siz nimalarda ko‘rasiz?» va hokazo. Bu savol-topshiriqlar bilan ishlash jarayonida o‘qituvchining roli faqat yo‘naltirib turishdan iborat bo‘ladi. Haqiqatlarni bolalarning o‘zлari kashf etadilar. She’rdagi muallif shaxsini ochib beruvchi jihatlar umumlashtirilib alohida sanaladi va daftarga yozib olinadi. Muhammad Yusufning ilohiy tuyg‘u – muhabbatga ham munosabati o‘zgacha: “*Sevdingmi, yuz yil kut, Sevmasang unut!*”- deydi “Sevgi sadosi” she’rida. Sevish va muhabbat hissi haqida ayuhannos solish, bizning yigitlarimizdek jamoat transportiyoki bog‘lardagi o‘rindiqlarga, ko‘cha-ko‘ylarda devorlarga sevgilisining ismini yozib qo‘yish o‘g‘il bolaning ishi emas. Shoirning nazarida xatto buni ma’shuqaga aytish ham shart emas. Chunki uningcha: “*Suymoq bu – gulkanda*

kuymoq azali". Ma'lumki, inson, ko'pincha, o'zida yo'q hisning nima ekanligini ham bilmaydi. Shoir yozyaptimi, demak bu tushunchalarning hammasidan xabardor, hammasi uning o'zida u yoki bu darajada mavjud. Hamkorlar satrlardagi shoirning xarakteriga xos bo'lgan katta haqiqatlarni birgalikda topishlari va o'quvchilar daftarlariiga, o'qituvchi esa xattaxtaga qayd etib borishlari maqsadga muvofiqdir.

*Men beun sevarman, men jim sevarman,
Qiyomatgacha shul sukutdadirim.*

"Men bittadurman"

O'qituvchi bu misralar bilan o'quvchilarni tanishtirib, so'ng ularga: "Shu ikki satrga tayangan xolda shoir shaxsiga xos bo'lgan sifatlarni ochishga urinib ko'ring. Nima deb o'ylaysiz, Qiyomatgacha ichda saqlanadigan muhabbat kimga tegishli bo'lishi mumkin? Bu misralardan shoirga xos bo'lgan qanday fe'l-atvorni ilg'ash mumkin? Sizningcha, muhabbatini ichda saqlashdan oshiqqa nima naf?" singari savol-topshiriqlarni berishi mumkin. Olingan natijalar yana qayd etib boriladi.

*Men ham o'sha-o'shaman, nodon,
Goh pand berib, gohida pand eb.
Mashhur qil deb so'rab Xudodan,
Tilamabman baxtli bo'lay deb...*

"Muddao"

Shoirlar, bir qaraganda hamma qatori oddiy odamday, bir qarasa, ilohiy yaratiqday. Ba'zan, jayronlarga tug'ishgan og'a bo'lishni, kapalaklar bilan oshno tutinishni, momoqaymoqlarga jo'ralikni-yu, qizg'aldoqlarga himoyachilikni istab qolishadi, goh qarasangiz, oddiy insoniy baxtga tashna. O'qituvchi sheriklariga yuqoridagi misralardan shoir shaxsini qidirishga undovchi savol bilan murojaat qilgani ma'qul. Buyuklik va oddiylikni o'quvchilarning o'zlari, o'z darajalarida farqlaganlari durust.

*Yo'ling kesib o'tsam – o'zim xijolat
Uzoqdan bir seni ko'rsam kifoyat,*

*Bir nigohing o'zi menga inoyat,
Seni hech kim sevolmaydi meningdek.*

“Suvpari”

O‘quvchilar yuqoridagi misralarga tayanib “yo‘lini kesib o‘tish” tuShunchasi haqida mulohaza yuritsinlar. Bu qanday tuhhuncha? U xalqimizda qanday vaziyatlarda qo‘llanadi? Shunga asoslangan holda Shoирning milliy qadriyatlarga munosabati haqida o‘ylab ko‘rsinlar. Hamkorlarning kattasi juda yaxshi bilsa kerak, o‘zbeklardaayol zoti erkakning oldidan kesib o‘tmaslik odati bor. Bu erkakka hurmatsizlik sanaladi. Lekin bu odatning muhabbatga qanday daxli bo‘lishi mumkin? Muhabbat tuyg‘usini har kim o‘zicha tuShunadi. Oshiqning ma’shuqasiga hurmati shunchalarki, uning oldiga chiqishga, u bilan yuzma-yuz bo‘lishga ichki qudrati etmaydi. Mobodo, chiqa olgan taqdirda ham hayajon, xijolat qurshovida qoladi. O‘quvchilar oshiq ma’shuqasini shunday seva olishiga ishonisharmikin? Bugungi she’rxon ham shundoq seva olarmikin? O‘quvchi shular haqida o‘ylab ko‘rsin, munosabat bildirsin.

*Muhabbat, ey go‘zal iztirob,
Ey ko‘hna dard, ey ko‘hna tuyg‘u.
Ko‘kragimga qo‘lingni tirab,
Yuragimni to‘kib qo‘yding-ku.*

“Muhabbat”

Yuqoridagi to‘rtlikni o‘qib bergach, o‘qituvchi o‘quvchilar e’tiborini shoирning so‘z qo‘llashdagi, fikr ifodalashdagi mahoratiga qaratadi. Muhabbat atalmish qadim tuyg‘uning shoир qalbiga kirib kelishi ifodasi tasviri ham o‘quvchilarning nazaridan chetda qolmagani ma’qul. Bu M.Yusufning she’riyatdagi, shoир sifatidagi o‘ziga xos xususiyatidir.

*So‘rsang, sevinchimdan o‘kinchim ko‘proq,
Sendan-da kumushroq sochimdagи oq.
Yilim kelmay turib, yilim ketmoqda,
Ko‘zda tabassum-u kiprikda titroq...*

“Yangi yil kechasi” she’ridan olingen bu misralar shoир hayoti, turmush

tarzining tasviri. O‘quvchilar bu misralarni o‘zlari sharhlasinlar. Ulardan shoirning shaxsini qidirsinlar. Buning uchun tarbiyalanuvchilarga quyidagi savol-topshiriqlar bilan murojaat qilinsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi: “Sendan-da kumushroq sochimdagи oq” deb shoir kimga murojaat qilayotir deb o‘ylaysiz? “Ko‘zda tabassum-u kiprikda titroq...”ni qanday tushunish mumkin? O‘ylab ko‘ringchi, ko‘zda nima ifodalanayotir-u kiprikda nimaning tasviri? Bu satrlardan muallif xarakteriga xos bo‘lgan xususiyatlarni toping» va hk.

Mening kimligimni bilmaydi hech kim,

Men bir g‘alatiman, men – alohida.

Ko‘zimning yoshini keladi ichkim,

Tilimni chaynagim kelar gohida.

Mening kimligimni bilmaydi hech kim,

Men bir g‘alatiman, men – alohida.

Kiyiklar qonini keladi ichgim,

Chayonni chaynagim kelar gohida.

“Surat”

Shoirning alohidaligini o‘quvchilar nimalarda ko‘rishdiykin? Shu haqda ularning fikrini so‘rash lozim. Ko‘pchilik adabiyotshunoslar “asl tuyg‘ularni so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydi” deyishadi. Shoirning shaxsi bilan bog‘liq yuqoridagi misralar uning o‘zi ham o‘zligini to‘liq anglay olmaganidan dalolatdir, balki. Bu o‘zni anglash – Allohni anglashdir degan g‘oya bilan bog‘liqmikin? O‘quvchi shular haqida ham o‘ylab ko‘rsin. «*Kiyiklar qonini keladi ichgim, Chayonni chaynagim kelar gohida*» satrlari zamirida qanday haqiqat yashiringan bo‘lishi mumkin? Ular shoir xarakteridagi qanday sifatlardan dalolat berayotir deb o‘ylaysiz? Kichik hamkorlar shular haqida o‘yga tolarkan, muallifni o‘zining darajasida tushunishga harakat qiladi, shoir yordamida o‘z shaxsini anglashga, aniqlashga intiladi. Bu Shoirning ham, o‘qituvchining ham, adabiy ta’limming ham katta yutug‘idir.

Osmon cho ‘kib qoldi bu oqshom,

*Yulduz bo 'lib yog 'ildi bir sas.
Bir mahalla nigohni ko 'rdim:
Yashash kerak, sevish shart emas.*

*Yoqa ushlab qolsin ko 'rganlar,
Olovlargo otgum uni, bas.
Yonib ketsin charsillab qalbim,
Sevish kerak... Yashash shart emas!*

“Osmon cho'kib qoldi bu oqshom...”

«Yuqoridagi misralarda shoirning alohidaligi qaysi misralarda o‘z aksini topgan? O‘quvchi “bir mahalla nigoh”ning fikriga qo‘shiladimi yoki shoirning gapigami? Nega? shoir: “Olovlargo otgum uni, bas” deganda nimani nazarda tutayotir deb o‘ylaysiz? «Sevish kerak... Yashash shart emas»ni hamkorlar bиргаликда тahlilga tortishlari kerak. Inson uchun, ayniqsa, shoir uchun nimalar muhim ekanini topish kerak. Shu muhimlar shoirning shaxsini belgilaydi.

*Toshkanda... tog 'larni sog 'indim,
Yashil o 'tloqlarni sog 'indim.
Suv bo 'yiga chordona qurban
Momoqaymoqlarni sog 'indim.*

*O 'zim tashna, menga tashnalar –
Yalangoyoqlarni sog 'indim.
To 'ydim tillabarmoq qizlardan,
Qo 'li qadoqlarni sog 'indim.*

“Sog‘indim”

Yuqoridagi misralarda ifodalangan shoir sog‘ingan timsollarga tayanib uning shaxsiga baho berishga o‘quvchilarini undash lozim: «U qanday odam? «...O 'zim tashna, menga tashnalar – Yalangoyoqlarni sog 'indim»ni qanday tushunish mumkin? «Yalangoyoqlar» deganda kimlar nazarda tutilayotir deb o‘ylaysiz? O‘quvchilar «qo 'li qadoqlar» deganda kimlar nazarda tutilayotganini

bilarmikinlar? shoir ularning nimasini sog‘ingan? «*Suv bo‘yiga chordona qurban Momoqaymoqlar*»ni o‘quvchilar qanday tasavvur qilisharkin? Bu tasvirda shoirning qanday sifati namoyon bo‘lgan?» singari masalalar ustida ishslash hamkorlarni mustaqil fikrlashga, munosabat bildirish va xulosalar chiqarishga, ayni zamonda odamni kashf qilish, Shu asnoda o‘zligini anglashga o‘rgatadi. So‘ngra keyingi she’rdan olingan parchaga hamkorlarning diqqati qaratiladi:

Menimcha, dunyoda eng katta gunoh –

Sog‘inmay yashamoq...

Menimcha, dunyoda eng katta gunoh –

Hiringlab she’r o‘qimoq!

“Yolg‘on yomon derlar...”

8-sinf tarbiyalanuvchilari savob va gunoh kabi tushunchalarni yaxshi farqlaydilar. M.Yusufning nazaridagi gunohlarga e’tibor qilishsin. «Ular “*sog‘inmay yashash*” va “*hiringlab she’r o‘qish*”ni qanday tushunisharkin? Kichik hamkorlar ham bu hislarni gunoh hisoblashadimi yoki bu ular uchun noaniq, tushunarsiz tuyg‘umi? O‘zi she’r qanday o‘qiladi?» Agar tushunisholmayotgan bo‘lishsa, shoir bilan o‘zlari oralaridagi masofani chandalab ko‘rishsin. Shu tariqa shaxsiyatlarini o‘rganishadi.

Tunlari charog‘on shunday shaharda,

Hech kimga ko‘nglimni yora olmayman.

Men siz aytgandayin hammani sevdim,

Hammaga ishondim, mana oqibat...

“Onamga xat”

Yuqoridagi misralar o‘qib bo‘lingach, o‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilgan ma’qul: «Shoir yozganidek onasining gapiga kirib hammani yaxshi ko‘rgani, hammaga yaxshilik qilgani, hammaga ishongani qanday oqibatlarga olib keldi deb o‘ylaysiz? Bu yaxshimi, yomonmi? Nega? Onaning bolasiga o‘rgatganlari to‘g‘rimi yoki noto‘g‘ri? Bunday fazilatlarning rag‘batini shoir kimdan olishi mumkin deb o‘ylaysiz? Siz qandaysiz?» Satrlar zamiridan muallifga xos fazilatlar hamkorlarning birgalikdagi izlanishlari asnosida topilib

qayd etib qo‘yiladi. Umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi bosqichida shoira Halima Xudoyberdieva ijodini o‘rgatish samaradorligini oshirish uchun ta’lim texnologiyalaridan “Modulli texnologiya”, interfaol usullar asosidagi darslarni tashkil qilish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Bunday darslarni loyihalashtirishda ta’lim bosqichi, o‘quvchi-talabalarning, yosh, fiziologik, psixologik xususiyatlari e’tiborga olinishi lozim. Ayni damda o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limning “hamkorlik pedagogikasi” yo‘nalishida o‘quvchilarni ta’lim maqsadlariga birgalikda faol izlanish-intilishlarini to‘g‘ri yo‘naltirish orqali erishish mumkin. Buning uchun:

1. Ta’lim maqsadlarinianiq belgilash.
2. Pedagogik vazifalarni qo‘yish.
3. Ta’lim berish metod va usullarini uning maqsadiga moslab, metodik talablar asosida belgilash.
4. Ta’lim berish shakli va vositalarini, baholash shaklini oldindan aniqlashtirish talab qilinadi.

Mashg‘ulot rejasi asosida Halima Xudoyberdieva hayoti va ijod yo‘li haqida o‘quvchilarga ma’lumot beriladi. Slayd orqali ekranda Shoira ijodidan namunalar o‘quvchilar e’tiboriga havola etiladi. Ushbu misralar Shoira imon-e’tiqodini, qiyofasi mazmunini anglatishga ishora qilinadi.

*Men shunchaki o‘ylagim kelmas,
Xayol-sharob misol, qilsin sarxusht, may.

Men shunchaki kuylagim kelmas,
Ovoz pardalarim chidab bersa, bas.*

(“Shunchaki” she’ridan).

*Qon asli yorug‘lik. Yorug‘lan tiz cho‘k,
Asl mard Vatanga tiz cho‘kib o‘tar.

Qancha qoning bo‘lsa, Vatan uchun to‘k,
Qancha shoning bo‘lsa – Vatanni ko‘tar!*

(“Da’vat” she’ridan).

*Boshpanammi, bosh panohim,
Quyosh, mohim manimsan.
Ko ‘nglim kuyib aytar ohim,
Qaytar ohim, manimsan...
Vatan!
Shunda onaliking
Nogoh chuqur tuygaysan,
Besh bolamning ko ‘z yoshlarin
O ‘zing artib qo ‘ygaysan!...*

(“Vatan” she’ridan).

“Maktab adabiy ta’limidagi ustuvor tendentsiyalaridan biri: “Adiblarning asarlarida ularning shaxsiy fazilatlari u yoki bu darjada aks etishini anglatish” darslarda adiblarning baland shaxsiyatlarini kashf etishga qaratilgan. Shoiraning fazilatlari uning “Uyat” she’rida quyidagicha namoyog bo‘ladi:

*Boshingni silagan osmon uyatli,
Suymay, kuymay yashash oson, uyatli.
Ishq – shu bir dard bilan chiqisholmasang,
Dunyoda darlaringbeson, uyatli.
Qirg ‘oq buzib, toshib, to ‘lmasang – uyat,
Kim uchundir ado bo ‘lmasang – uyat.
Yashashda yasharsan neni desang deb,
O ‘lganingda ishq deb o ‘lmasang – uyat!*

To‘g‘ri, hayotda uyat hisoblanadigan ishlar anchagina. Lekin “Suymay, kuymay yashash”ning uyatligi, “Qirg ‘oq buzib, toshib, to ‘lmas”likning uyatligi, birovlar uchun “ado bo ‘lmas” likning uyatligi yoki “O ‘lganingda ishq deb o ‘lmas”likning uyatligini Halima Xudoyberdieva teran his etadi. Shunday baland

“uyat”lardan orlanishni o‘zbek o‘quvchisiga singdirish ma’nan baland o‘zbekni tarbiyalash demakdir.

O‘zining shaxsiyatini asarlari zamiriga berkitgan shoira yozadi: “Bu tug‘yonsiz. Parchin qonsiz, ishqqa jonsiz. Bu qurbonsiz umr meniki emas”. u ishqisiz, fidoyiliksiz, tug‘yonsiz, isyonsiz yasholmaydi. Halima Xudoyberdieva “Ayol o‘tib borar” she’rini shunday yozadi:

*Sen so ‘rama, men ham aytmayin,
Quragimning singanini qars.
Shovqin solma, men uyg ‘otmayin,
Yuragimda yotar bir yo ‘lbars.*

Ayol zoti tabiatan mungli, tayanchtalab bo‘ladi. Bizning shoira sirtdan shunday bo‘lib ko‘rinsa-da, tabiatan o‘zi aytmoqchi: “Ich-ichida yo‘lbars o‘kirib, Sirtdan mayin jilmaygan ayol”. Bunday ayollar kamdan-kamligini o‘zi ham biladi. Shuning uchun o‘zini mumtozlarga mengzay oladi:

*Garchand bugun suymoq, kuymoq dardi kam
Yo, Rab, ertaga ham to ‘lib o ‘tmasa,
Bdu dunyoda yo ‘q deng Halimani ham,
Kamida Nodira bo ‘lib o ‘tmasa.*

“Bu yo‘llar”.

“Hayrat, sen qaydasan bo‘l panoh... Loqaydlik yomg‘iri ivitdi. Hayrat, kel, ko‘ksimda ko‘tar qad, Men yolg‘iz seniki bo‘larman. Kun kelib o‘lsam ham, men faqat hayratning qo‘lida o‘larman”. Bu misralar ruhiyatimni junbushga keltirdi. Lekin ichimda nega shunday holat yuz bergenini ifodalashga ojizman. Shuni bilamanki, bu – shoiraning “Men”i. U boshqacha bo‘lolmaydi ham, boshqacha yasholmaydi ham. Bu uning qo‘lidan kelmaydi. Unga shunday yashash buyurilgan, shunday yashaydi. U biladi: “Yig‘lashga moyilni yig‘latar hayot, Sinishga moyilni... u sindiradi”. Hammasi kishining tabiatiga, meniga bog‘liq. U bir narsaga amin: “... Ko‘krak qafasingda yashasa yo‘lbars O‘lgach ham o‘kirib tursa ham bo‘ladi”.

Lekin hayot shafqatsiz. Xalq qo'shiqlarida: "Bu dunyoda bor bo'lsa yurak-bag'ri butuni, Qog'ozdan o'chogq yasab, gulday qilay o'tinni" deya kuylaganidek, hammaning dardi o'ziga yetarli. Lekin ichdan baland odamning shiori bunday: "Bir siringni ololmay Yosh dunyolar qarisin".

Halima Xudoyberdieva o'zining bir inson, ayricha shoira sifatida qandayligini quyidagi to'rtligiga mujassam qilib joylab qo'ygan:

*Menam o'z-o 'zimcha roz aytdim, ketdim,
Ne aytdim. O'zimga xos aytdim. Ketdim.
Bu dunyoga kelib bor qilgan ishim:
Bir ikki so 'z aytdim. Rosat aytdim, ketdim.*

Halima Xudoyberdieva samimiyatga moyil she'rxonni mana shu haqiqatlari bilan o'ziga rom qiladi. U o'zbekning ulkan onasi sifatida farzandlarni rostlikka, yurt obodligi uchun kurashlarga chorlab turadi.

III bob. ISHNING AMALIYOTGA TATBIQI

3.1. Ta’lim bosqichlari dastur va darsliklari tahlili

Davlat ahamiiyatiga molik pedagogik hujjat bo‘lmish ta’lim standarti uzoq muddatga mo‘ljallab tuziladi va rasmiy idoralar tomonidan tasdiqlanadi. O‘quv dasturi esa DTS talablari asosida yaratilib, ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. O‘quvchilarning ko‘pchilik qismi dastur talabiga to‘la javob bera oladigan darajaga yetganda, ta’lim standarti talablarini ko‘tarish va bilimlar darjasini o‘lchovini yuksaltirish maqsadida DTSlar qayta ishlanadi, takomillashtiriladi. Adabiy ta’lim DTSining minimal talablari dasturda taqdim etilgan bilim, ko‘nikma, malaka va ma’naviy sifatlarning 60%ni qamrab oladi. U DTSning minimal talablaridan 40% yuqori bo‘ladi. DTSning minimal talabini bajargan o‘quvchi o‘rtacha o‘quvchi hisoblanadi. O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasi o‘quvchilarning qancha qismi minimal talablarga javob bergani, qanchasi bu ko‘rsatkichdan o‘sishni qayd etganiga ko‘ra tahlil qilindi.

Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo, Usmon Azim, Halima Xudoyberdiyeva, Azim Suyun kabi ijodkorlarning ijodi namunalarini akademik litsey va kasb-hunar ta’lim bosqichlarida o‘rgatish bevosita ularning ruhiyatini ma’naviy olamini yuksaltirish, yaratuvchi shaxs sifatida shakllanishlarini ta’minalashga, ma’naviy, axloqiy tarbiyaga qaratilganligi sababli o‘quvchilarning yangiliklarga intilishi, o‘z bilimlarini muntazam oshirib borishi, insoniy fazilatlari, o‘z millati, Vatani va adabiyotini sevishi; milliy adabiyotdan faxrlanishi; milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilishi, mustaqil fikrlashga, o‘z nuqtai nazariga tayanib badiiy asarlar haqidagi qarashlarini bildirishga harakat qilishi; ma’naviy-axloqiy fazilatlarga egaligi ham mezon sifatida belgilandi.

1. A.Oripov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo, Usmon Azim, Halima Xudoyberdiyeva, Azim Suyun kabi ijodkorlarning hayoti va ijodi haqida to‘la ma’lumotga egalik darjasini.

2. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo, Usmon Azim, Halima Xudoyberdiyeva, Azim Suyun kabi ijodkorlarning ijodini biografik va struktural tahlil metodlariga tayanib mustaqil o‘rganish, asarlarini tahlil qilish malaka darajasi.
3. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo, Usmon Azim, Halima Xudoyberdiyeva, Azim Suyun kabi ijodkorlarning hayoti va ijodi bo‘yicha ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlarda faol qatnashib, ijod namunalari tahliliga tayanib, shoir fenomenini belgilay olish darajasi.
4. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo, Usmon Azim, Halima Xudoyberdiyeva, Azim Suyun kabi ijodkorlarning o‘ziga xos uslubi va mahoratini ko‘rsatuvchi ijod namunalari asosida mustaqil qarashlarini dalillay olishi, asosli xulosalar chiqarish darajasi.
5. Talaba nutqining ravonligi, ta’sirchanligi, mantiqliligi, izchilligi, tanqidiy qarashlarga egaligi.
6. Dasturda belgilangan talablar asosida Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo, Usmon Azim, Halima Xudoyberdiyeva, Azim Suyun kabi ijodkorlar ijodi bo‘yicha mustaqil ishlar (og‘zaki savol-javob va referat ishi shaklida) natijalari.
7. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo, Usmon Azim, Halima Xudoyberdiyeva, Azim Suyun kabi ijodkorlar ijodi bo‘yicha tavsiya qilingan asosiy va qo‘sishma adabiyotlarni o‘rganganlik darajasi.

Ilmiy-tadqiqot ishida ilgari surilgan masalalar yuzasidan Toshkent To‘qimachilik va yengil sanoat instituti akademik litseyida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tadqiqot asosida o‘tkazilgan sinov ishlari natijasi shuni ko‘rsatdiki, adabiy ta’limni yangilangan pedagogik tafakkur talablari va tamoyillariga tayanib tashkil qilishganda o‘quvchilarning dastur va DTSning minimal talablariga javob beruvchi qismida sezilarli o‘sish bo‘lganligi; adabiy ta’limda o‘quvchilarni faollashtiruvchi va adabiy talqin hamda tahlil usullariga tayanilgan darslarning samaradorligi oshganligi ma’lum bo‘ldi.

Tadqiqot ishimiz davomida o‘quvchi talabalarda masбулият hissi, qator insoniy fazilatlar, ma’naviy-axloqiy sifatlar Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo, Usmon Azim, Halima Xudoyberdiyeva, Azim Suyun kabi ijodkorlar asarlari tahlili jarayonida yorqin namoyon bo‘lganligini kuzatdik. Ular jamoada hamkorlikda ishlash va qator o‘quv muammolarini hal qilish jarayonida o‘zaro hamjihatlik, oldiga qo‘yilgan vazifani mas’uliyat bilan hal qilish, o‘rtoqlarining fikrlarini tinglash, muhokama qilish, fikr bildirish, o‘zgalar fikrini hurmat qilish kabi xususiyatlarni namoyon qildilar. Ayni xususiyatlarning namoyon bo‘lish darajasi A.Oripov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo, Usmon Azim, Halima Xudoyberdiyeva, Azim Suyun kabi ijodkorlar hayoti va ijodini o‘rgatish vositasida o‘quvchilar ma’naviyatining yuksalganlik mezonlari qilib belgilandi. Umumtablim maktablari o‘quvchilariga DTS va o‘quv dasturlari talablarasi asosida egallashlari talab qilinadigan bilim, ko‘nikma va malakalarning minimal darajasiga qo‘sishmcha quyidagi mezonlar bilan yondashildi:

1. O‘quvchining tafakkur yuritishi, badiiy asarga munosabat bildira olish darajasi.
2. Badiiy asarni mustaqil tahlil qila olishi.
3. O‘z xulosa va muhokamalarini asoslay olishi hamda og‘zaki nutqda mazmunli bayon qilishi.
4. Shoirming o‘ziga xos poetik olami bilan ijodiy qiyofasiga xos xususiyatlarni ajrata olishi badiiy asarlarni janriga ko‘ra farqlab tahlil jarayonida janr talablarini e’tiborga olishi.

Muayyan ijodkor hayoti va faoliyati, yaratgan asarlarini o‘rganish vositasida o‘quvchi mustaqil fikrlashga o‘rganadi, unda shaxslik xususiyatlari shakllana boshlaydi. Ta’lim jarayonida tenglik, o‘zaro hurmat va samimiy tuyg‘ular paydo bo‘lsagina u samarali yakunlanishi mumkin. O‘quvchilarning faoliyatlarini chuqr o‘rindiq va ularga quyidagi anketa savollarini tarqatdik.

1. Adabiyot o‘qituvchingiz pedagogik texnologiyalar asosida dars olib boradimi? (“Ha” – 35%, “Yo‘q” – 65%).

2. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo, Usmon Azim, Halima Xudoyberdiyeva, Azim Suyun kabi ijodkorlar hayoti va ijodini o‘rgatishda uning o‘ziga xos ijodiy qiyofasini asarlariga bog‘lab o‘rganasizmi? (“Ha” – 32%, “Yo‘q” – 68%).

3. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo, Usmon Azim, Halima Xudoyberdiyeva, Azim Suyun kabi ijodkorlar asarlarini guruhdoshlaringiz bilan kichik guruhlarda hamkorlikda tahlil qilib, o‘rganasizmi? (“Ha” – 30%, “Yo‘q” – 70%).

4. Shoirlar asarlarini tahlil qilishda nazariy bilimlaringizga tayandingizmi? (“Ha” – 40%, “Yo‘q” – 60%).

Tajriba sinflarida o‘quvchilarning yozuvchi hayoti va ijodi haqidagi bilimlarini aniqlash yuzasidan zaruriy bilim hamda malakalarining rivojlanganlik darajasini DTS asosida belgilovchi mezonlarini ishlab chiqdik va anketa savollari natijalari asosida o‘quvchilar bilan ish olib bordik.

O‘rta maxsus ta’limi talabalari uchun belgilangan mezonlar quyidagicha:

O‘quvchilarning shoir hayoti va ijodi haqidagi bilimlarni qay darajada o‘zlashtirganliklariga qarab, ularni 3 ta guruhgaga bo‘ldik. Shoир hayoti va ijodi bo‘yicha DTS va o‘quv dasturida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarini to‘liq egallagan o‘quvchilarni “A” guruh; nisbatan to‘liq egallagan o‘quvchilarni “B” guruh; bunday bilim, ko‘nikma va malakalar DTS minimal talablariga to‘liq javob bermagan o‘quvchilarni esa “V” guruh deb belgiladik.

“A” guruhdagi o‘quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, mustaqil fikrlash salohiyatlarini o‘sirish maqsadida shoир hayoti va ijodini interfaol usullarga tayanib o‘rgatishga harakat qildik. Ijodkor shaxs qiyofasini, uning o‘ziga xos uslubi va mahoratini asarlari tahlili va talqini vositasida anglashga yo‘lladik.

“B” guruhdagi o‘quvchilarning shoир hayoti va ijodini o‘rgatish bo‘yicha bilimlarini o‘sirish uchun DTS va o‘quv dasturi talablari asosida namunaviy tahlil darslarini ko‘proq tashkil qilish hamda bu darslarda o‘quvchilarni interfaol usullarga tayanib faollashtirishga harakat qildik. Ularda adabiy asarlarni mustaqil o‘qish va tahlil qilish malakalarini takomillashtirishga erishdik. “A” va “B”

guruhdagi o‘quvchilarga shoir asarlarini mustaqil o‘qib o‘rganish bo‘yicha tavsiyalar berdik.

“V” guruhdagi o‘quvchilarining bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishga tavsiya qilingan asarlarni o‘qish va tahlil qilishda soddaroq topshiriqlar ustida ishslash orqali erishib borildi. Ilg‘or va samarali ta’lim usullariga tayanib ularning tahlil malakasini shakllantirishga, faollashtirishga harakat qildik. Shu yo‘l bilan xilma-xil ijodkorlar shaxsini, ijodiy qiyofasini, ruhiyati va tafakkur tarzini anglab borishlariga, mustaqil fikri bilan nutqining rivojlanishiga, ma’naviy sifatlarning tarkib topishiga erishdik.

Adabiyot darsliklaridagi mavzularni qiziqarli va mazmunli metodlar asosida o‘quvchiga tushuntirib berish juda yaxshi samara beradi.Ta’lim jarayonida turli interfaol metodlardan foydalanish yaxshi samara berishi,o‘quvchini mavzuga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishi haqidagi fikrlarni ajdodlarimizning tajribalari ham tasdiqlaydi.Jumladan, Beruniyning ilmiy merosida u ishlab chiqqan tabiatni o‘rganish va uning ilmiy metodi katta o‘rin egallaydi. Beruniy ilmiy metodining xarakterli xususiyatlari va asosi olimning obyektivligi va oqilona yondaShuvi, kuzatish, tajribalar, og‘zaki va yozma yodgorliklarni o‘rganish dalillarga tanqidiy yondashuv, ularni aqliy xulosalar shaklida mantiqiy umumlashtirish, haqiqatni aniqlash maqsadida qiyoslashdan iboratdir.

Abu Rayhon Beruniy o‘z asarlarida ta’kidlashicha ta’lim izchil, ko‘rgazmali, maqsadga qaratilgan bo‘lishi lozim va muayyan tizim bo‘yicha olib borilishi kerak. Uning fikricha, ko‘rgazmalilik ta’limni ancha qulay, aniq va qiziqarli qiladi. Kuzatuvchanlik va fikrlashni rivojlantiradi.

Yana bir buyuk ajdodimiz Ibn Sinoning didaktik prinsiplari mohiyati esa quyidagicha: ta’lim osondan murakkabga qarab borishi kerak. U bolalarning mayl va qobiliyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim, mashqlar bolaning imkon darajasida bo‘lishi kerak va ta’limni jismoniy mashqlar bilan uyg‘unlikda olib borish lozim. Ibn Sinoning muhim pedagogik prinsipi uning inson aqli hayoti oqimiga ta’sir etadi degan tasavvuridir, chunki inson hayvondan aynan aqli mavjudligi, demakki, o‘zi qilayotgan xatti-harakatni anglash imkoniyatiga egaligi

bilan farqlanadi. Bolada atrof-muhit yetakchi rol o‘ynashi haqidagi qarashlari Ibn Sino pedagogik fikriyotida muhim ahamiyatga egadir.

Abu Nasr Forobiy esa o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni muhim deb hisoblaydi.

Forobiy tanqidiy fikrlashini tashkil etish masalalari bo‘yicha bir qator muhim tavsiyalarni ishlab chiqdi. Yaxshi nazoratchi bo‘lish uchun, deydi u, uch narsaga rioya qilish zarur:

1. ma’lum bir fan asosiga yotgan barcha prinsiplarni yaxshi bilishi kerak;
2. ushbu aniq fanga doir mana shu prinsip va ma’lumotlardan zarur xulosalar chiqara olish kerak, ya’ni muhokama etish qoidalarini egallash lozim;
3. haqiqatni yolg‘ondan farqlash va xatolarini to‘g‘rilash uchun xato nazariyalarni inkor etishni va boshqa mualliflar mulohazalarini tahlil etish zarur.

Darhaqiqat,adabiyot darslarida interfaol metodlar muhim ahamiyatga ega.Jumladan,biz tadqiq etayotgan “Istiqlol davri she’riyati” mavzularini o‘quvchilarga o‘rgatishda ulardan foydalanilsa,darslar yanada mazmunli va tushunarli bo‘ladi.Quyida Istiqlol davri she’riyatini o‘rganishda qo‘llash mumkin bo‘lgan bir qator interfaol metodlarni ko‘rib chiqamiz:

1.O‘zaro fikr almashinushi metodi.

Fikrlash jarayoni talabalarning o‘zaro fikr almashuvini ko‘zda tutadi. Buning uchun dastlab, darslikdagi biror munozarali mavzudagi s he’r tanlab olinadi. Masalan,Akademik litsey adabiyot darsligidan o‘rin olgan Shavkat Rahmonning “Baxt so‘zi” she’ri o‘quvchilar tomonidan ifodali o‘qilgach, she’rning mazmuni yuzasidan o‘quvchilar o‘zaro fikr almashishlari mumkin.Har bir o‘quvchi o‘z dunyoqarashidan kelib chiqqan holda “Baxt” haqida fikrlarini bildiradi.Keyin esa barcha talabalar bir-birlarining fikrlariga munosabat bildiradilar va oxirida umumiyl xulosa keltirib chiqariladi.Talabalardan fikrlovchi sifatida o‘zlaridagi fikrni ham oddiy xatoni ham boshqalarga ochib berish talab etiladi.

O‘zaro fikr almashishda talabalardan diqqat bilan tinglash, o‘zining qarashlarini tinglovchiga zo‘rlab o‘tkazish va so‘zlovchilarni tuzatib turishdan o‘zini tiyib turishi ham talab etiladi. Bunga javoban talabalar boshqalarning yalpi fikrlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Keng doiradagi munozara oqibati o‘laroq talabalar o‘zlariga tegishli bo‘lgan g‘oyalarni tahlil qilish va uni aniqlashga yanada qobiliyatları orta boradi, hamda ularni o‘z bilimlari va hayotiy tajribalarida yaratgan g‘oyalarni tizimiga tirkab boradi. Fikrlash jarayonini tashkil etishda uni o‘tkazishning bir necha modellari mavjud. Ular:

- ❖ *o‘ziga ishonch hosil qilish;*
- ❖ *ishda faol ishtirok etish;*
- ❖ *o‘rtoqlar va o‘qituvchi bilan fikr almashish;;*
- ❖ *o‘zgalar fikrini tinglay olish.*

1. Klasterlarga bo‘lish.

Bu pedagogik strategiya bo‘lib, talabalarning u yoki bu mavzu bo‘yicha erkin va bemalol o‘ylashlariga yordam beradi. U faqat g‘oyalarni orasidagi bog‘lanishlarni fikrlashni ta’minlaydigan tuzilmani aniqlab olishni talab qiladi. U fikrlashning oddiy shakli emas, balki miya faoliyati bilan zid bog‘liqdir.Klasterni mavzuni o‘tish boshlangan vaqtida amalga oshirish lozim.Masalan,”Muhammad Yusuf she’riyati” mavzusi o‘tilayotgan vaqtida o‘quvchilarni ushbu mavzu yuzasidan dastlabki bilimlarini aniqlash yuzasidan klaster o‘tkazish mumkin.O‘quvchilarga Muhammad Yusuf hayoti va ijodiga oid ma’lumotlarni klasterga tushirish topshirig‘I beriladi va ularning Muhammad Yusuf haqidagi dastlabki tasavvurlari aniqlab olinadi. Shundan so‘ng o‘qituvchi mavzuni tushuntirishi mumkin.

Klasterlarga bo‘lishdan axborotlarni chorlash bosqichida ham, fikrlash bosqichida ham foydalaniladi. U muayyan mavzu sinchiklab o‘rganilguncha fikrlash faoliyatini ta’minlashda foydalanilishi mumkin. Klasterlarga bo‘lish talabalarning tasavvurlarini yangi bog‘lanishlari yoki ularning grafik ifodalari ko‘rinishlarini ta’minlovchi sifatida ham o‘tganliklarini yakunlash vositasi sifatida

qo‘llanilishi mumkin. Bu o‘z bilimlariga, muayyan mavzu to‘g‘risida tasavvuriga va uni tushunishga yo‘l ochadigan nazardagi strategiyadir.

Klasterlarga bo‘lish quyidagi usullarda amalga oshiriladi:

1. Hushingizga kelgan barcha fikrlarni yozib olish. Bu fikrlarni muhokama qilmang, shunchaki yozib olavering.
2. Xatni (matnni) kechiktiradigan imlo va boshqa omillarga ham parvo qilmang.
3. Sizga berilgan vaqt nihoyasiga yetmagunga qadar yozishdan to‘xtamang. Miyangizga fikr kelishi tuxtab qolsa, toki yangi fikrlar kelgunga qadar qog‘ozda nimalarnidir chizib o‘tiring.
4. Imkoni boricha, bog‘lanishi mumkin bo‘lgan g‘oyalarni tizib chiqing, g‘oyalarning oqimi sifati va ular orasidagi aloqalarni chegaralab qo‘ymang.

Klasterlarga bo‘lish, ayrim tadqiqotchilarining ta’biricha, bu juda moslashuvchan strategiyadir. Uni individual tarzda ham guruhda ham qullah mumkin. Guruh faoliyatida u guruh g‘oyalarning tirgovichi sifatida xizmat qiladi. Bu esa talabalarni har bir amalda bo‘lgan bog‘lanishlarga, aloqalarga yaqinlashtiradi.

3. “Nilufar guli”metodi.

Ushbu metod ayrim jihatlari bilan klasterga o‘xshab ketsa-da, undan farq qiladi.”Nilufar guli” ni amalga oshirish uchun mavzu tushuntirib berilgan bo‘lishi kerak.Masalan “Abdulla Oripov” mavzusi o‘tilayotganda pedagog o‘quvchilarga Abdulla Oripovning she’rlari nomlarini yozib chiqish orqali gul hosil qilishni topshirishi mumkin.Gulning har bir gulbarglariga bittadan she’r nomi yoziladi va Nilufar guli hosil bo‘ladi.



3.2. OCHIQ DARS ISHLANMASI

**Mavzu: Abdulla Oripov hayoti va ijodi
Ta'lim berish texnologiyasi**

Mashg'ulot vaqtি: 80 daqiqa	O'quvchilar soni
O'quv mashg'ulotining shakli	Ma'ruza, suhbat, aralash shakl
Mavzu rejasi	1. Abdulla Oripov hayoti va ijodiy faoliyati 2. Abdulla Oripov She'riyatining g'oyaviy-badiiy mohiyati. 3. Ijodkor badiiy maqsadining qahramonlar orqali ifodalanishi.

O'quv mashg'ulotining maqsadi:

Ta'limiy-tarbiyaviy: O'quvchilarga Abdulla Oripov ijod namunalarini xalq tafakkuri tadrijiy rivojining badiiy ifodasi ekanligini tuShuntirish, ularning o'ziga xos xususiyatlari, g'oyaviy mazmuni, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatini ochib berish. Abdulla Oripov she'riyati haqida o'quvchilarda to'liq tasavvur hosil qilish, ularning bilimi, dunyoqarashini oshirish ,ularda faqat insoniy fazilatlarni kamol

toptirish. .

Rivojlantiruvchi: dars davomida Abdulla Oripov asarlaridan parchalar o‘qitish, parsha mazmunini qayta hikoya qildirish orqali o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutq qobiliyatini o‘sirish, tahlil qilish, ijodiy va mantiqiy fikrlash, to‘g‘ri xulosa chiqarish, vaqtdan unumli foydalanish, Shuningdek, jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Pedagogik vazifalar:	O‘quv faoliyatining natijalari:
<ul style="list-style-type: none"> – o‘quv dasturida ko‘zlangan maqsadni amalga oshirish; – Abdulla Oripov ijodining o‘ziga xos jihatlarini ochib berish; – Ijodkorning estetik ideal haqidagi tasavvurlarini tushuntirib berish; 	<ul style="list-style-type: none"> – Abdulla Oripov asarlarida targ‘ib etilgan ilmlilik, o‘qimishlilik, vatanparvarlik, ogohlik, ziyraklik kabi fazilatlarga ega bo‘lish insonning ko‘zlagan ezgu maqsadlariga erishishda muhim ekanligini anglaydilar; – ijod namunalarining mazmun-mohiyatini chuqurroq o‘rganish orqali uning ijodkoriga bo‘lgan hurmati oshadi.
O‘qitish usullari	Ko‘rgazmali ma’ruza, interfaol metodlar, suhbat, babs-munozara, “tarmoqlash” metodi, tahlil usuli, turli o‘quv mashg‘ulotlari.
O‘qitish vositalari	O‘quv qo‘llannamalari, darslik, proyektor, tarqatma materiallar, doska, bo‘r, fotosuratlar, ijodiy topshiriqlar, ko‘rgazmali qurollar.
O‘qitish shakli	Jamoaviy, kichik guruhlarda ishlash
O‘qitish sharoitlari	Ta’lim jihozlari bilan ta’minlangan auditoriya
Monitoring va baholash	Og‘zaki nazorat, savol-javob, ijodiy topshiriqlar.

O‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi

Ishlash bosqichlari, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	Ta’lim beruvchi	Ta’lim oluvchi
Tayyorgarlik bosqichi.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Avvalgi darsda o‘tilgan mavzuni mustahkamlash yuzasidan savollar tuzadi; 2. Yangi mavzuni tuShuntirish bo‘yicha ko‘rgazmali qurollar tayyorlaydi; 3. Mavzu bo‘yicha mini-ma’ruza tuzadi; 4. Taqdimot slaydlarini tayyorlaydi; 5. O‘quv fanini o‘rganishda 	

	foydalilaniladigan adabiyotlar ro‘yxatini tuzib chiqadi.	
1-bosqich. Kirish mashg‘uloti. 20 daqiqa	<p>1.1. Mavzuni e’lon qiladi, maqsadi, rejasi bilan tanishtiradi. Tayanch so‘zlar lug‘ati beriladi.</p> <p>1.2. O‘quvchilarni kichik guruhlarda ishslash texnikasi qoidasi bilan tanishtiradi.</p> <p>1.3. O‘tilgan mavzuni “keys-stadi” metodi va “Aqliy hujum” metodlari orqali mustahkamlaydi va yangi mavzuga ko‘prik yasaydi.</p>	<p>Mavzuni yozib oladilar. Tayanch so‘zlarning lug‘ati bilan tanishadilar. Dars qoidalari bilan tanishadilar.</p> <p>Mavjud bilimlari asosida o‘z fikrlarini bildiradilar, topshiriqlarni bajaradilar.</p>
2- bosqich. Asosiy qism 50 daqiqa	<p>2.1. Mavzuga oid slaydlar namoyish qilinadi va izohlash orqali mavzu bo‘yicha asosiy nazariy ma'lumotlar ma'ruza qilinadi.</p> <p>2.2. Ma'ruza bo‘yicha “tarmoqlash” metodi vositasida yangi mavzu mustahkamlanadi.</p> <p>2.3. Mavzuni mustahkamlash, o‘quvchilarda qiyosiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida “tahlil usuli” metodidan foydalilanadi.</p>	<p>Berilgan ma‘lumotlarni tinglaydilar, tezis sifatida daftarga tushurib oladilar. Mustahkamlash uchun topshiriqlarni bajaradilar va taqdimot qiladilar. Kichik guruhlarga birlashib topshiriqni bajaradilar.</p>
3-bosqich. Yakunlovchi qism. 10 daqiqa	<p>3.1. Mavzu bo‘yicha o‘quvchilar tomonidan berilgan savollarga javob beradi;</p> <p>3.2. Dars yakunlanadi, baholar e’lon qilinadi.</p> <p>3.3. Uyga vazifa beriladi.</p>	Savollar beradilar. Vazifani yozib oladilar.

Dars shiori: Kechagini mustahkamla, bugungini o‘rgan, ertangiga zamin hozirla!

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism:

1. Salomlashuv, guruh davomatini aniqlash;

2. Dars davomida o‘qituvchi va o‘quvchilar tomonidan amal qilinishi lozim bo‘lgan qoidalarni belgilab olish;
3. Kun hikmati tahlili.

Adabiyot yashasa, millat yashar: adabiyoti gullamagan va adabiyotining taraqqiysiga cholishmagan va adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotidan, o‘ydan, fikrdan mahrum qolib, sekin-sekin inqiroz bo‘lur.

Cho‘lpox. “Adabiyot nadur?” maqolasi.

(5 daqiqa)

II. Asosiy qism:

1.O‘tilgan mavzuni so‘rash:

a) O‘qituvchi o‘quvchilarni faollashtirish, avvalgi darsda o‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida quyidagi singari savollarni beradi:

- Abdulla Oripovning hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?
- Shoiring qaysi she’rlarini bilasiz va unda ifodalanayotgan mazmun?
- Shoiring she’rlaridan namunalar aytib bering.
- Shoiring she’rlaridagi lirik qahramon tushunchasi.
- Ijodkor she’rlaridagi badiiy san'atlar?

O‘quvchilarning bergen har to‘g‘ri javobi uchun qatorlarga bittadan rag‘bat kartochkasi berib boriladi. Savol-javob yakunida to‘g‘ri javoblar soniga qarab qaysi qatorda ko‘p kartochka borligi ma'lum bo‘ladi.

(“Aqliy hujum” metodi asosida)

(5 daqiqa)

b) Har uchchala guruhga bittadan Abdulla Oripovning she’ridan namuna beriladi va bu she’rni “keys-stadi” metodiga solish talab qilinadi. Bunda o‘quvchilar mazkur she’rlarni ijodkor ruhiyati, dunyoqarashi va hayotiga bog‘lagan holda, yozma tarzda bajaradilar. Vazifa bajarilgach, har bir guruh natijalarni taqdim etadi.

- “Tilla baliqcha” she’rida shoir ifodalamoqchi bo‘lgan g‘oya?
- “Men nechun sevaman O‘zbekistonni” she’rining g‘oyaviy-badiiy mazmuni?

(10 daqiqa)

Yangi mavzu bayoni: Abdulla Oripov Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi Neko‘z qishlog‘ida dehqon oilasida 1941 yili dunyoga keldi. Obidiyda qishloq sovetidagi o‘rtta maktabni 1958 yili oltin medal bilan tugatgach, O‘rtta Osiyo Davlat dorilfununi jurnalistika bo‘limiga kirib, uni 1963 yili muvaffaqiyatli bitirib chiqdi. 1963 yildan buyon turli nashriyotlarda muharrirlik, Yozuvchilar uyushmasi kotibi, mualliflar huquqini himoya qilish idorasining rahbari vazifalarida xizmat qili! kelmoqda. A.Oripovning talabalik yillarida yaratilgan she’rlari respublika vaqtli matbuotida bosilib chiqdi. 1965 yili birinchi she’rlar to‘plami «Mitti yulduz» chop etildi, shundan buyon shoirning «Ko‘zlarim yo‘lingda» (1967), «Onajon» (1969), «Ruhim» (1971), «O‘zbekiston», «Qasida» (1972), «Xotirot» (1974), «Yurtim shamoli» (1974), «Hayrat» (1979), «Hakim va ajal» (1980) «Najot qal’asi» (1981), «Yillar armoni» (1983) she’riy to‘plamlari bosilib chiqdi. Mazkur to‘plamlarga kirgan she’rlarni ko‘zdan kechirar ekanmiz, unda shoirning she’rdan she’rga, to‘plamdan to‘plamga, yildan yilga o‘sib, ijodiy barkamollahib borganligiga guvoh bo‘lamiz. Abdulla Oripov she’riyatining hozirgi bosqichi yana ham o‘zgacha, ma’naviy-badiiy jihatdan yuksaklikka ko‘tarilmoqda. Uning «Haj daftari» (1992)ga kirgan «Hadis»lari ham buni to‘la tasdiqlaydi. Hozirgacha u 50 ta hadis-She’r yaratgan bo‘lsa, kelgusida uni yuzga yetkazmoqchi. U mustaqil O‘zbekiston madhiyasining muallifi hamdir. Eng muhimi, unda shoir Qur’oni karim va hadisi shariflardagi ma’naviyatni qayta, zamon ruhida tiklash, yangi bosqichga ko‘tarishga intilyapti. Abdulla Oripov iste’dodli shoir bo‘lganidek, iste’dodli tarjimon hamdir. U Dantening «Illohiy komediya» asarini o‘zbek tiliga yuksak mahorat bilan o‘girdi. Abdulla Oripov Nekrasov, L.Ukrainka, Shevchenko asarlари ham ona tiliga tarjima qilgan. Ijodkorning she’riy majmualari rus va boshqa qa dosh xalqlar tillariga tarjima qilingan va alohida kitob holida nashr etilgan. la Oripov — noyob iste’dod egasi. Chuqur falsafiyliklik, milliy g‘urur,

isyonkor ruh, diniy-axloqiy teranlik shoir she'riyati asoslarini tashkil etadi.

XULOSA

Mustaqillik davri she’riyati haqida so‘z yuritganda, bu davrda turli adabiy oqimlarga, Har xil „... izm “ larga ham rag‘bat ko‘rsatilayotganini ta’kidlash kerak. Biz ulardan birortasini ham qoralash, inkor etish fikridan benihoya yiroqmiz. Faqat har qanday yangilikga intilish milliy zaminga tayangan holda bo‘lsagina o‘zini oqlashini ta’kidlamoqchimiz xolos. Hazrat Navoiy aytmoqchi, „ Nazmda ham asl anga ma’ni “ (hatto nazmda ham) ekanini , ulug‘ Ogahiy ta’riflaganidek, „ maoniy javohirin nazm etmoq “ adabiyot, she’riyat ahlining asl vazifasi ekanini yodda tutish zarur deb bilamiz.

Istiqlol davri o’zbek she’riyati bu foydali yomg‘irdan so‘ng potrap o‘sib chiqqan qo‘ziqorin emas, aksincha , asrlar davomida tinimsiz o‘zgarib – yangilanib kelayotgan o‘lmas jarayonning qonuniy bir uzvi bo‘lib, o‘zida juda katta va ko‘pdan - ko‘p tajribalarni jamlagan g‘oyat murakkab va bebaho san’atimizning bir bo‘lagidir. U shunisi bilan o‘zidan avvalgi barcha davrlarga ham o‘xshaydi, ham o‘xshamaydi. O‘xshash jihat – o‘sha davrlar she’riyatidan o‘sib chiqqan , binobarin, ularning eng yashovchan unsurlarini o‘ziga meros qilib olgan. Farqli jihat – dunyoga keng ochilgan jamiyatning , xususan , uning bir a’zosi hisoblanmish shoirning ozod tafakkurini o‘zida aks ettiradi. Shuning uchun u turfa mohiyatga ega. XX asr avvalida ibtido olgan yangi o’zbek she’riyati ham yakrang emas edi, biroq, baribir u umumiy yaxlit g‘oyaga qaysi bir jihatlari bilan bo‘ysunardi. Bugungi she’r kechagi ijtimoiy – siyosiy, mafkuraviy bitiklardan farq qilib , bu – subyekt nidosi, shaxs bo‘lib yetishish yo‘lidagi shoir hayqirig‘i. Uning kuchli va ojiz tomonlari shu yerda mujassam.

Bitiruv ishida istiqlol davri shoirlari, shu davr she’riyatining o‘ziga xos xususiyatlari , she’riyatdagi yangicha g‘oya va yo‘nalishlar haqida to‘xtalib baholi qudrat ularning tahliliga kirishishga harakat qilindi . Bitiruv ishida ayniqsa , istiqlol davrida yaratilgan vatan haqidagi she’rlar tahliliga keng e’tibor qaratilgan . Bunda asosan , Abdulla Oripov , Sirojiddin , Sayid , Rauf Parfi kabi shoirlarning

vatan mavzusidagi she'rlarining badiiylik nuqtai nazaridan qay darajadaligi 60-80-yillar she'riyati bilan qiyoslab xulosalar chiqarishga harakat qilindi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik davri o'zbek she'riyati milliy adabiyotimiz rivojlanish bosqichida ekanidan darak beradi. She'riyatimizning kelajagiga umid bilan qarash uchun yetarli asoslar bor. Milliy she'riyatimiz yosh avlod tafakkurini ongini ma'rifat ziyosi bilan shu'lalantirish, bu orqali nurli istiqbolga xizmat qilishdek mo'tabar ishda bundan keyin ham yetakchi o'rin tutadi, deb ishonamiz. Vatan haqidagi she'rlar esa ushbu vatanda yashayotgan har shaxs qalbida ushbu yurtga nisbatan faxr xissini uyg'otadi deb o'ylaymiz.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

- 1.Шарафиддинов О. Ижодни англаш баҳти. –Тошкент: Шарқ, 2004;
- 2.Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000;
- 3.Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Т.: Ўзбекистон, 2008;
4. Назаров Б. Ғафур Ғулом олами. –Тошкент: Фан, 2004;
5. Расулов А. Таҳлил, талқин, баҳо. –Т.: Фан, 2006;
- 6.Қуронов Д. Чўлпон насли поэтикаси. –Тошкент: Шарқ НМК, 2004;
- 7.Ёқубов И. Бадиий-эстетик сўз сехри. – Т.: Фан ва технология, 2011;
- 8.Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва. –Т.: Янги аср авлоди, 2006
- 9.Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Халқ сўзи. // 2016 йил 16 декабр.
- 10.Қозоқбой Йўлдош, Муҳайё Йўлдош Бадиий таҳлил асослари. – Т.: Камалак, 2016
- 11.Шоди Отамурод. Соғинч ранглари. Шеърлар. –Тошкент: АДИБ, 2014.
- 12.Шарафиддинов О. Талант – халқ мулки. -Т.: Ёш гвардия, 1979.
- 13.Жўрабек Жаҳон. Туйғулар шаҳарчаси. Шеърлар. – Т.: АДИБ, 2014.
- 14.Норчаева М. Дил ифори. Шеърлар. – Т.: Муҳаррир, 2013.
- 15.Раҳимбоева Қ. Оқ қоғоздаги изҳор. Қаранг: Зилолабону. Кўнгилга йўл. -Т.: Тафаккур нашриёти, 2016
- 16.ЁШларга оид давлат сиёсати тўғрисида. (ЎРҚ-406-сон) 2016 йил 14 сентябрь.
- 17.Сирожиддин Сайид. Сўз йўли.2 жилд.Т.: Шарқ,**194 6.**
- 18.Қаҳхоров К. Чорак аср ҳамнафас. –Т.: Ёш гвардия, 1987.
- 19.Фарида Афрўз. Тасбех. (Учликлар). Т.: Шарқ.-2007
- 20.Олимов С., Аҳмедов С., Кўчқоров Р. «Адабиёт». 8-синф ўқувчилик учун дарслик-мажмуа. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2006.
- 21.Узвийлаштирилган давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. Она тили.

Адабиёт. Ўзбек тили. (5–9-синфлар). –Т.: РТМ, 2010

22.Қ.Йўлдош., Қ. Ҳусанбоева, М. Йўлдошева. Кийиксўқмоқдаги йўловчи. Монография. – Т.: ЎзМЭ, 2014.